

X. X. BAXRAMOV

ICHKI ISHLAR IDORALARI TOMONIDAN
MA’MURIY MAJBURLASH CHORALARINI
QO‘LLASH ASOSLARI VA TARTIBI

O‘quv qo‘llanma

Taqrizchilar:

yuridik fanlar nomzodi, dotsent N.T.Ismoilov;
yuridik fanlar nomzodi, dotsent N.P.Azizov

Baxramov X.X.

Б-30 Ichki ishlar idoralari tomonidan ma’muriy majburlash choralarini qo‘llash asoslari va tartibi: O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. – 64 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada ma’muriy majburlash choralari tushunchasi, turlari maqsad va vazifalari, shuningdek, ichki ishlar idoralari xizmat faoliyatida ma’muriy majburlash choralarini qo‘llash asoslari hamda tartibi yoritilgan.

IIV oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilari, tinglovchi va kursantlari, Serjantlar tarkibini tayyorlash oliy kurslari kursantlari hamda ichki ishlar idoralarining amaliyotdagi xodimlariga mo‘ljallangan.

ББК 67.99(5y)116.3я73

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimizda milliy huquqiy tizimning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat turli sohalaridagi mavjud ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining qabul qilinishi va ularning hayotga qay darajada tatbiq etilishi bilan belgilanadi. Qabul qilinayotgan qonunlar va qonun osti hujjatlari turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan birga ma'lum bir huquqqa xilof xatti-harakatlarning oldini olish, cheklash yoki sodir etilgan qonunga zid harakat (harakatsizlik)lar uchun majburlash choralarini ham belgilaydi.

Turli sohalarda huquqqa xilof xatti-harakatlar uchun ma'muriy majburlash choralarini qo'llash jamiyatdagi mavjud qonunchilik tizimining nechog'lik to'g'ri va qonuniy asoslarda tatbiq etilishiga bog'liq. Ushbu ma'muriy majburlov choralarini qo'llashda qonuniylikka qat'iy rioya etish katta ahamiyat kasb etadi, chunki ularning qo'llanilishi inson huquqlari, erkinliklari va daxlsizligiga ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda mazkur ma'muriy majburlash choralarini qo'llashning huquqiy asoslari belgilab berilgan. Shunday qonun hujjatlaridan biri bu – O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksidir.

Ushbu kodeksda ma'muriy majburlashni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan tegishli davlat organlari (mansabdor shaxslar), ma'muriy majburlash choralarini qo'llash tartibi, muddatlari belgilangan. Biroq davr talabi, shuningdek, yurtimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlaridan kelib chiqqan holda mazkur kodeksni yanada takomillashtirish talab etilmoqda. Bu borada, davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish zarur. Shuningdek, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish, demokratlashtirish, bu sohada qonuniylikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini ishonchli himoyalash bo'yicha choralarini ham mazkur kodeksda ko'zda tutish lozim"¹.

¹ *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б.26.

Ma'muriy majburlash choralarini qo'llovchi organlar qatorida ichki ishlar idoralari salmoqli o'rin egallaydi. Zero, huquqni muhofaza qiluvchi organlar orasida bevosita ichki ishlar idoralariga inson, davlat va jamiyat huquqlarini ta'minlash, ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish, ularga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash kabi vazifalarni amalga oshirish uchun, davlat tomonidan ma'muriy majburlash choralarini qo'llash bilan bog'liq bir qator vakolatlar berilgan.

Shu bois, ichki ishlar idoralari xodimlari avvalo ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgunga qadar insonlar, davlat va jamiyat uchun xavf soladigan holatlarning oldini olish, zararli oqibatlarini kamaytirish hamda bartaraf etish, sodir etilayotgan huquqqa xilof qilmishlarni cheklash, shuningdek aybdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish kabi ma'muriy majburlash choralarini qonun hujjatlariga asoslangan holda maqsadga muvofiq qo'llashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda respublikamizda fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarining himoyalaniishi, tinchlik-osoyishtalik hamda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash masalalarini ichki ishlar idoralarining faoliyati va ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Biz murakkab zamonda yashamoqdamiz. Bugungi kunda mamlakatimiz hayotiga uyushgan va transmilliy jinoyatchilik, narkobiznes bilan bog'liq xavf-xatarlar tahdid solmoqda. Bunday balo-qazolarga qarshi samarali kurashish, ularga munosib zarba berish ichki ishlar idoralariga tegishli barcha xizmatlardan aniq va hamjihatlikda harakat qilishni, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning har bir xodimidan o'z xizmat burchini mas'uliyatni chuqur his etgan holda, halol ado etishni talab qiladi»¹.

Buning uchun hozirgi kunda xizmat qilayotgan shuningdek, bo'lajak ichki ishlar idoralari xodimlaridan ma'muriy majburlash choralarini tushunchasi, turlari ularni qo'llash asoslari va tartiblarini aniq, puxta o'zlashtirib olish talab etiladi. O'tgan yillar davomida ichki ishlar idoralari tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli, tizimli islohotlar natijasida uning barcha sohaviy xizmatlari, jumladan huquqbuzarliklarning oldini olish xizmatining profilaktika inspektorlari instituti shakllanib, faoliyati zamon talablari asosida takomillashtirilmoqda.

¹ *Ислон Каримовнинг Ички ишлар идоралари ходимларига йўллаган байрам табриги // Постда. – 2007. – 25 окт.*

Biroq, ichki ishlar idoralarining ma'muriy majburlash choralarini qo'llash faoliyatini tashkil etish sohasida ayrim muammo va kamchiliklar ham mavjud. Ulardan biri – ushbu faoliyat va uning uchun kadrlar tayyorlash jarayonining o'quv qo'llanmalar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi, 2009-yilda Adliya vazirligining Normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilinishini monitoring qilish markazi tomonidan IIV tizimidagi huquqbuzarliklarning oldini olish xizmati profilaktika inspektorlarining MJtK normalariga rioya etishi ustidan monitoring o'tkazilgan. Natijada profilaktika xizmatlarining huquqni qo'llash amaliyotida bir qancha kamchiliklar aniqlangan. Jumladan, ayrim hududlarda masalan, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida profilaktika inspektorlari MJtKning 248-moddasida profilaktika inspektorlari uchun belgilangan 9 ta ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy javobgarlikka tortish bo'yicha o'z vakolatlari haqida yetarli ma'lumot yoki tasavvurga ega emasligi aniqlangan (atigi 39, 40% ushbu vakolatlar mavjud ekanligini aniq ko'rsata olgan, demak, 61 va 60% bu haqda aniq tasavvurga ega emas). Yoxud ayrim profilaktika inspektorlari o'z vakolati doirasida ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni va ma'muriy javobgarlikka tortishi shart bo'lgan ishlarni ko'rib chiqish uchun boshqa organ va mansabdor shaxslarga yuborganligi holatlari ham aniqlangan². Bundan tashqari profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishda qo'llaniladigan ma'muriy majburlov choralarini orasida alohida guruhni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish, ashyolarni, transport vositalarini hamda hujjatlarni ko'zdan kechirish va olib qo'yish, huquqbuzar shaxsini, shuningdek, ishning boshqa holatlarini aniqlash, ma'muriy huquqbuzarlikni bartaraf etish, bayonnoma tuzish, ishni o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqish, mazkur ish bo'yicha chiqarilgan qaror ijrosini, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarning yuritilishini ta'minlashga qaratilgan choralar tashkil etadi. Mazkur ta'minlash choralarini huquqiy tartibot, jamoat tartibi va fuqarolarning xavfsizligini muhofaza etishda keng qo'llanilishi bilan birga, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishda ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, jamoat tartibini saqlash sohasida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning 75-80 % dastlab ma'muriy yo'l bilan ushlab turiladi va shaxsiy ko'rikdan o'tkaziladi. Bu choralar jamoat tartibiga, boshqaruvning belgilangan tartibga tajovuz qiluvchi ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Biroq, amaliyotda ayrim joylarda mazkur ta'minlash choralarini qo'llashda inson

huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarining buzilishi, MJtKda ko'rsatilgan muddatlar, talab va tartib-qoidalarga rioya etilmayotganligi kabi holatlar ham aniqlangan.

Ushbu o'quv qo'llanma bu boradagi bo'shliqni to'ldirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, unda ma'muriy majburlash choralarini tushunchasi, turlari maqsadi va vazifalari, shuningdek, ichki ishlar idoralari tomonidan xizmat faoliyatida ma'muriy majburlash choralarini qo'llash asoslari va tartibi yoritilgan.

I bob.
MA'MURIY MAJBURLASH MA'MURIY HUQUQ INSTITUTI
SIFATIDA. MA'MURIY MAJBURLASH TUSHUNCHASI VA
TURLARI

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida mamlakatimiz rahbariyatining asosiy e'tibori Konstitutsiya va qonunlarni davr talabiga mos tarzda ishlab chiqishga qaratildi. Zero, davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Inson avvalo Konstitutsiya, qonunlar va huquqiy mezonlar asosida yashashi kerak".

Bu borada mustaqil davlatimiz esa davlat va jamiyatni boshqarish jarayonida muayyan vazifalar, funksiyalarni bajarish maqsadida amaldagi qonun hujjatlariga tayangan holda boshqariluvchi shaxslarning ongi va irodasiga ta'sir ko'rsatuvchi turli usullardan foydalanadi. Ular davlat boshqaruvi faoliyatining usullari deb ataladi. Davlat boshqaruvi faoliyatining usullari – huquqiy vosita sifatida davlat boshqaruvi faoliyatining maqsadlariga erishish, vazifalarini bajarish va funksiyalarini amalga oshirish uchun qo'llaniladi². O'z navbatida, boshqaruvi faoliyatining usullari – boshqaruvi shakllari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki muayyan boshqaruvi harakatlari natijasida yuzaga kelgan huquqiy oqibat (huquqiy akt) asosidagina boshqaruvi faoliyatining usullari qo'llanilishi mumkin. Aniqrog'i, boshqaruvining huquqiy shakli bo'lgan boshqaruvi hujjatining qabul qilinishi u yoki bu usulning qo'llanilishiga asos bo'ladi. Shu bilan birga, boshqaruvi usullari ijro etuvchi organlarning muayyan boshqaruvi maqsadlariga qanday usul va vositalar bilan erishishini belgilab beradi. Boshqaruvi faoliyatining usuli boshqaruvi subyektining boshqaruvi obyektiga nisbatan maqsadga muvofiq yo'naltirilgan huquqiy ta'sir etish vositasi hamdir.

Davlat boshqaruvida ma'muriy-huquqiy munosabat qatnashchilarining o'z burchlarini qonuniy bajarishlarini ta'minlash uchun ikki universal davlat boshqaruvi faoliyatining usullari (*ishontirish va majburlash*)dan maqsadga muvofiq samarali foydalaniladi.

Ishontirish usuli davlat boshqaruvining barcha qatnashchilariga qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng asosiy davlat boshqaruvi usuli bo'lsa, *majburlash usuli* esa faqat davlat boshqaruvi tartib-qoidalarini buzishga moyil, buzayotgan, ularga rioya etmaydigan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan usuldur.

Huquqshunoslikda mavjud huquqiy tizimlar ichida o'ziga xos o'rin va ahamiyatga ega bo'lgan ma'muriy huquqda mavjud ma'muriy-huquqiy institutlar orasida *ma'muriy majburlash* instituti muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatning majburlash usuli – boshqaruvi subyektining irodasini boshqariluvchining ixtiyoriga xilof tarzda qaror toptirishdan iborat. Boshqaruvi obyektiga boshqaruvi subyektining irodasini bajarmagan taqdirda, uning irodasini o'zgartirish, ya'ni boshqaruvi subyektining irodasi(buyruq, ko'rsatma, qarori)ga bo'ysundirish maqsadida, boshqaruvi subyektiga boshqaruvi obyektiga ruhiy, moddiy, tashkiliy va jismoniy ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, *majburlov* – bu bo'ysunuvchi obyektning xohish-irodasini rad etish va uning xulq-atvoriga tashqi ta'sir ko'rsatish hisoblanadi. O'rnatilgan tartib-qoidaning bajarilmaganligi sababli, boshqaruvi subyektining irodasi buziladi. Boshqaruvi subyektiga irodasini qayta tiklash va bo'ysunuviga erishish maqsadida, boshqaruvi obyektning xohish-irodasiga ta'sir etiladi.

Majburlov orqali huquq-tartibot, mulkchilik, fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari va manfaatlari, davlat hokimiyatning normal faoliyat yuritishi ta'minlanadi¹.

Jamiyatda majburlovning - turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ta'sir etish obyektiga qarab: ruhiy, moddiy, tashkiliy va jismoniy ta'sir etishga bo'linadi. Masalan: shaxsga, uning erkinligiga qaratilgan ta'sir etish – *jismoniy*; mol-mulki, daromadi, ish haqiga qaratilgan ta'sir etish – *moddiy*; ishdan bo'shatish, muayyan huquqdan mahrum etish, tashkilotni tugatish – *tashkiliy* ta'sir etish hisoblanadi. Biroq, majburlovning bunday turlarga bo'linishi shartlidir.

Majburlov choralari yuridik tabiatiga ko'ra *huquqiy va huquqqa zid majburlovga* bo'lish mumkin. *Huquqiy majburlov choralari* - vakolatli davlat organlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. *Huquqqa zid majburlov (zo'ra vonlik)* esa, masalan, bir davlatning boshqa bir davlatga kuch ishlatishi (agressiyasi), o'zga hududni bosib olishi, tashqi tazyiq va boshqalarda namoyon bo'lishi mumkin. Mamlakat ichida esa hokimiyat tuzilmalari va mansabdor shaxslarning mansab suiiste'molchiliklari, vakolat doirasidan chetga chiqishi, xizmat vazifalariga sovuqqonlik yoki beparvolik bilan qarashida yoxud uyushgan jinoyiy guruhlarning aholiga tamagirlik va zo'ra vonlik qilishida ifodalanishi mumkin.

Majburlov choralari huquqshunoslarni birinchi navbatda, huquq-tartibotni ta'minlash va davlat boshqaruvi faoliyatining ma'lum bir usuli sifatida qiziqtiradi. Huquqshunoslik fani huquqiy me'yorlar asosida

qo'llaniladigan hamda davlat hokimiyat ko'rsatmalariga rioya etilishiga olib keladigan huquqiy majburlovni o'rganadi.

Davlat boshqaruvi subyektlari qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, intizomni saqlash maqsadida qo'llashi mumkin bo'lgan davlat majburlov choralariidan biri bo'lgan **huquqiy majburlov** ham o'z navbatida:

a) *ma'muriy majburlov*; b) *intizomiy majburlov*; v) *moddiy majburlov*; g) *jinoiy-huquqiy majburlov*; d) *jinoiyat protsessual majburlov choralariiga bo'linadi*.

Ma'muriy majburlov davlat majburlovining muhim tarkibiy qismi sifatida ma'muriy huquq normalariga muvofiq qo'llaniladigan huquqiy majburlov turidir.

Yuridik adabiyotlarda "ma'muriy majburlash" iborasi talqiniga oid bir necha yondashuvlarni uchratish mumkin. Ma'muriy majburlashga eng avvalo, ma'muriy-huquqiy normalar bilan mustahkamlangan huquqiy majburlovning sohaviy turi sifatida qaraladi.

Huquqiy tizimning alohida tarmog'i sifatida ma'muriy huquqning tartibga solish predmeti nuqtai nazaridan ma'muriy majburlash davlat boshqaruvini amalga oshirishda joriy etiladi. Ma'muriy majburlov choralariini ma'muriy qonunchilikda mustahkamlanganligini inobatga olgan holda, ushbu majburlov turini tartibga soluvchi normalar ma'muriy huquqning mustaqil huquqiy instituti – ma'muriy-huquqiy majburlov instituti sifatida ham e'tirof etiladi.

Bu borada ma'muriy huquq lug'atida ma'muriy majburlashga quyidagicha ta'rif berilgan "Ma'muriy majburlash - jamiyatning hayotiy faoliyatida (jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligi, ruxsat berish tizimi, sanitariya, yong'in xavfsizligi va b.) ijtimoiy normalar va qoidalarni bajarish maqsadida ijroiya hokimiyati sohasida jismoniy va yuridik shaxslarning munosib xulq-atvorda bo'lishini majburiy ta'minlash usuli"¹.

Mazkur ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ma'muriy majburlashning alohida belgilaridan biri uni ijroiya hokimiyati sohasida qo'llanishidir. Shu bilan birga, ma'muriy huquq fanida ijro etuvchi hokimiyat davlat hokimiyat organlarining tizimi sifatida ifodalanaadi. Shu bois, ma'muriy majburlashni ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining turli sohalarida qo'llanishini qayd etish mumkin.

Ma'muriy majburlash muammolari xususida ilmiy izlanishlar olib borgan yana bir huquqshunos olim M.I.Yeropkin Ma'muriy majburlashni

jamoat xavfsizligini ta'minlash yoki ma'muriy xatti-harakat uchun javobgarlikka tortish, huquqqa xilof harakatni to'xtatish maqsadida fuqarolardan, mansabdor shaxslardan yuridik majburiyatlarini bajarishga majbur etishdan iborat qonunda nazarda tutilgan choralarni davlat boshqaruvi organlari, sudlar, ayrim davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan jamoat tashkilotlari tomonidan qo'llanilishi, deb ta'rif beradi. Mazkur ta'rifda ma'muriy majburlashning "huquqqa xilof xatti-harakatlarni to'xtatish" maqsadida qo'llanilishi bilan birga uni "jamoat xavfsizligini ta'minlash yoki ma'muriy xatti-harakat uchun javobgarlikka tortish" maqsadida ham qo'llanilishini ko'rsatuvchi maxsus belgilari sifatida qayd etilgan. Bunda muallif ma'muriy majburlashni qo'llash fuqarolar va mansabdor shaxslarning yuridik majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash vazifasini o'taydi deb ta'kidlaydi.

Huquqshunos olim D.N.Baxraxning ta'kidlashicha, *Ma'muriy-huquqiy majburlash* – huquqqa xilof xatti-harakat sodir etilishi munosabati bilan ma'muriy huquq normalarida belgilangan majburlash choralariini funksional hokimiyat subyektlari tomonidan qo'llaniladigan davlat majburlovining alohida turidir². U ma'muriy-huquqiy majburlov subyekti sifatida "funktional hokimiyat"ni ko'rsatib, faqat davlat organlarigina ma'muriy majburlash subyekti bo'la olishi mumkin degan fikrni ilgari surgan.

Huquqshunos olim H.R.Alimov esa, ma'muriy majburlashga "davlat boshqaruvi jarayonida ma'muriy huquqbuzarlikning oldini olish va aybdorlarni ma'muriy javobgarlikka tortish maqsadida kishilarning ongiga va xulqiga ruhiy, moddiy yoki jismoniy ta'sir ko'rsatish" deb tushuncha bergan³.

Boshqa bir yuridik adabiyotda ma'muriy majburlashga quyidagicha tushuncha berilgan. "*Ma'muriy majburlash* – bu qonun hujjatlari bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilish maqsadida, ma'muriy huquq normalarida belgilangan tartibda davlat boshqaruvi organlari tomonidan, qonunda nazarda tutilgan alohida hollarda sudlar tomonidan qo'llaniladigan davlat majburlovining alohida turidir"¹. Ushbu tushunchada ma'muriy majburlashning maxsus belgilari sifatida uni qo'llovchi subyektlar hamda majburiy choralarni qo'llash tartibini belgilovchi normalarni qayd etish mumkin.

¹ Словарь административного права. – М., 1999. – С. 25.

¹ Маъмурий ҳуқуқ: Дарслик / Проф. Ҳ.Т. Одилқориев ва Б.Э. Қосимов умумий таҳрири остида – Т., 2010. – Б.185.

Yuqorida keltirilgan ma'muriy majburlash tushunchasiga oid fikrlarni huquqshunos olim N.T. Ismoilov umumlashtirib, davlat majburlovining tarkibiy qismi hisoblangan ma'muriy majburlashning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

a) ma'muriy majburlash davlat boshqaruvi sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilish maqsadiga ega davlat majburlovining alohida turidir. Ma'muriy-huquqiy normalarda davlat organlari tomonidan huquq-tartibotni ta'minlashda qo'llaniladigan keng doiradagi majburiy ta'sir etish choralari belgilagan. Ushbu majburlov turi nafaqat ma'muriy-huquqiy normalar va munosabatlarni balki boshqa huquq sohasi (mehnat, fuqarolik, yer va b.) normalarini ham qo'riqlaydi;

b) ma'muriy majburlash davlat boshqaruvi sohasida ijtimoiy munosabatlarni huquqqa xilof xatti-harakatlardan himoya qilish, shuningdek jamoat xavfsizligini ta'minlash vositasi va kafolati hisoblanadi;

d) ma'muriy majburlash xizmat bo'ysunuvi doirasidan tashqarida funksional hokimiyat subyektlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu munosabatlar tashkiliy bo'ysunuvning mavjud bo'lmaganida amalga oshiriladi;

y) ma'muriy majburlash subyektlari faqat vakolatli davlat organlari yoki ularning mansabdor shaxslari hisoblanadi, ya'ni ma'muriy majburlash subyektlarining ko'pligi. Shuning uchun ham ma'muriy majburlashga xos xususiyatdan biri *sudlovdan tashqari tartibning* ham qo'llanilishidir;

f) ma'muriy majburiy ta'sir etish nafaqat alohida shaxslarga, balki tashkilotlar jamoa subyektlariga ham qo'llaniladi;

g) ma'muriy majburlash ma'muriy-huquqiy va ma'muriy-protsessual huquq normalari bilan tartibga solinadi, ularda aniq ma'muriy majburlash choralari qo'llash tartibi va asoslari belgilanadi. Ayrim hollarda alohida choralarni (masalan, maxsus ma'muriy cheklash choralari) qo'llashning normativ-huquqiy tartibga solinishi tarmoqlararo xususiyatga ega (masalan, pul mablag'larini xatlash fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadi);

h) ma'muriy majburlash choralari jamoat xavfsizligiga yoki shaxs hayotiga tahdid soladigan holatlarning yuzaga kelishi, ma'muriy huquqbuzarliklarning sodir etilishi (yoki sodir etilishi arafasida), shuningdek jinoyatlarning oldini olishda qo'llaniladi;

i) ma'muriy majburlash choralari qo'llash tartibi nisbatan oddiyligi bilan farqlanadi. Masalan, ma'muriy-protsessual majburlovda jinoiy-protsessual majburlovga qaraganda huquqiy cheklavlar hajmi kamroq.

Keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, ma'muriy majburlash – huquqiy majburlovning sohaviy turi sifatida huquqqa xilof xatti-harakatlarning sodir etilishi yoki jamoat xavfsizligiga yoxud shaxsning xavfsizligiga tahdid soladigan holatlarning yuzaga kelishi munosabati bilan, aybdor shaxslarning yuridik majburiyatlarini og'ishmay bajarishini ta'minlashga qaratilgan ma'muriy va ma'muriy-protsessual huquq normalarida belgilangan majburiy ta'sir choralarni funksional hokimiyat subyektlari tomonidan qo'llaniladigan davlat boshqaruvi usulidir.

Mamlakatimiz ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida, xususan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ma'muriy majburlashning ayrim choralari o'z aksini topgan va huquqiy tartibga solingan. Biroq, qonun chiqaruvchi tomonidan mazkur kodeksdagi ma'muriy-huquqiy normalarda "ma'muriy majburlash" atamasi bevosita qo'llanilmagan, shuningdek, alohida ta'rif ham keltirilmagan. Amaldagi kodeksda ma'muriy majburlashning quyidagi choralari bayon etilgan jumladan, MJtKning 22-moddasida "Ma'muriy jazoning maqsadi" belgilangan. Ushbu normaga binoan "Ma'muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi bo'lib, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi"¹. Shuningdek, kodeksning yana bir qancha normalarida ma'muriy jazoning turlari, asosiy va qo'shimcha ma'muriy jazo choralari, ma'muriy jazo qo'llanilishining umumiy qoidalari, tartibi va muddatlari qayd etilgan. Bulardan tashqari, ma'muriy majburlashning yana quyidagi chorasi, ya'ni "Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni ta'minlash choralari" deb nomlangan 285-moddada "ma'muriy huquqbuzarlikni to'xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnoma tuzish zarur bo'lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida tuzish imkoni bo'lmagan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzish, ishlarning o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini ta'minlash va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida mazkur shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turishga, shaxsan ko'rikdan o'tkazishga, uning

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. 1995. – №3 – 6-м.

ashyolari, transport vositalarini ko‘zdan kechirishga va ashyo hamda hujjatlarni olib qo‘yishga yo‘l qo‘yilishi” qayd etilgan.

Ma‘muriy majburlash choralari tasniflash ma‘muriy huquqda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, alohida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Aytish joizki, bugungi kunga qadar ma‘muriy huquq fanida ma‘muriy majburlash choralari nisbatan umume‘tirof etilgan yagona fikrlarga, qarashlarga erishilmagan. Shu bilan birga, soha olimlarining ko‘pchiligi ma‘muriy majburlash choralari tasniflashda asosiy mezon sifatida *huquqiy tartibotni ta‘minlash usuli* va ushbu choralarni qo‘llash maqsadini asos qilib olishgan.

Ma‘muriy majburlashning turlari. Ma‘lumki, dastlab rus olimi M.I. Yeropkin ham ma‘muriy majburlash choralari tasniflashda huquqiy tartibotni ta‘minlash usulidan kelib chiqib, ma‘muriy majburlash choralari uch guruh(tur)ga taqsimlagan:

- 1) ma‘muriy oldini olish choralari;
- 2) ma‘muriy cheklash choralari;
- 3) ma‘muriy jazo1.

Ma‘muriy-huquqiy majburlov choralari ta‘sir etish usuliga ko‘ra oldini olish, cheklash va jazo turlariga ajratish haqidagi fikrni yana bir necha olimlar qo‘llab-quvvatlashadi2.

Yuridik adabiyotlarda ma‘muriy majburlash choralari ushbu tasnifidan tashqari boshqa tasniflar ham mavjud. Jumladan, D.N. Baxrax ma‘muriy majburlashning uch turini, ya‘ni ma‘muriy jazo, ma‘muriy cheklash va tiklovchi choralarni qayd etadi.

Shunday qilib, ma‘muriy majburlash choralari quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

- ma‘muriy oldini olish choralari;
- ma‘muriy cheklash choralari;
- ma‘muriy jazo choralari.

Ma‘muriy majburlashning dastlabki chorasi hisoblangan **ma‘muriy oldini olish choralari** – davlat boshqaruvi sohasida ma‘muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligiga tahdid soluvchi holatlarni bartaraf etish maqsadida qo‘llaniladigan majburiy ta‘sir etish usul va vositalaridir.

Mazkur choralar profilaktik ahamiyat kasb etadi hamda ma‘lum cheklanish va taqiqlar ko‘rinishida ifodalanadi.

Ma‘muriy oldini olish choralari quyidagilar kiradi:

- hujjatlarni tekshirish;
- shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish va ashyolarni ko‘zdan kechirish;

– olib ketilayotgan yoki olib kelinayotgan mollar(yuklar)ni bojxona ko‘rigidan o‘tkazish;

– odamlar yoki hayvonlar o‘rtasida yuqumli kasalliklar paydo bo‘lganda shu hududda karantin e‘lon qilish;

– davlat chegaralarini yopish;

– yo‘l harakatini vaqtincha cheklash yoki to‘xtatish;

– transport vositalarini texnik nazoratdan o‘tkazish;

– davlat sanitariya nazorati;

– yong‘inning oldini olish nazorati;

– ichki ishlar organlariga fuqarolarni (agar fuqaroning huquqbuzarlik yo‘liga kirmoqchi bo‘lgani to‘g‘risida axborot bo‘lsa) olib kelish, ro‘yxatdan o‘tkazish va rasmiy ogohlantirish;

– jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ma‘muriy nazorat o‘rnatish;

– majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va hokazo.

Ma‘muriy majburlashning zaruriy bo‘lgan keyingi turi hisoblangan **ma‘muriy cheklash choralari** – davlat boshqaruvi sohasida vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan ma‘muriy huquqbuzarliklarni to‘xtatish(cheklash) va uning yuz berishi ehtimol tutilgan zararli(xavfli) oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek aybdorlarni javobgarlikka tortishni ta‘minlash maqsadida qo‘llaniladigan majburiy ta‘sir etish xususiyatiga ega bo‘lgan usul va vositalardir.

Xususan, ma‘muriy cheklash choralari ahamiyatiga ko‘ra **umumiy va maxsus choralarga** ajratish mumkin:

Umumiy ma‘muriy cheklash choralari quyidagilar kiradi:

– huquqbuzarlikni to‘xtatish to‘g‘risidagi talab;

– ma‘muriy yo‘l bilan ushlab turish;

– transport vositasini ushlab turish;

– transport vositasini boshqarishdan chetlatish;

– nosoz transport vositalarini yo‘lga chiqarmasdan avtogarajga qaytarish;

– korxonalar faoliyatini vaqtincha to‘xtatib qo‘yish yoki uni yopish;

– majburiy davolash;

– yuqumli kasallikka uchragan shaxslarni vaqtincha ishdan chetlatish;

– ashyolar va hujjatlarni olib qo‘yish (o‘qotar qurol va o‘q-dorilarni olib qo‘yish) va hokazo.

Maxsus ma‘muriy cheklash choralari quyidagilar kiradi:

– ichki ishlar, bojxona, chegara qo‘shinlari xodimlari tomonidan xizmat vazifalarini amalga oshirishda ishtirok etish usuli natija bermagan

hollarda majburlash usulining jismoniy kuch, maxsus vositalar, xizmat itlari hamda oxirgi chora sifatida qurol qo'llash kabi cheklash choralarini qo'llaniladi.

Ma'muriy cheklash choralarini ta'sir etish (qo'llash) obyektlariga ko'ra *jismoniy shaxslarga qo'llaniladigan cheklash choralariga* va *yuridik shaxslarga qo'llaniladigan cheklash choralariga* ajratish mumkin:

a) jismoniy shaxslarga qo'llaniladigan ma'muriy cheklash choralariga quyidagilar tegishli:

– huquqbuzarlikni to'xtatish to'g'risidagi talab; ma'muriy yo'l bilan ushlab turish;

– transport vositasini ushlab turish; transport vositasini boshqarishdan chetlatish;

– majburiy davolash; yuqumli kasallikka uchragan shaxslarni vaqtincha ishdan chetlatish;

– ashyolar va hujjatlarni olib qo'yish (o'qotar qurol va o'q-dorilarni olib qo'yish);

– jismoniy kuch, maxsus vositalar, xizmat itlari hamda qurol ishlatish kabi choralar;

b) yuridik shaxslarga qo'llaniladigan ma'muriy cheklash choralariga quyidagilar tegishli:

– huquqbuzarlikni to'xtatish to'g'risidagi talab;

– korxonalar faoliyatini vaqtincha to'xtatib qo'yish yoki uni yopish;

– transport vositasini ushlab turish;

– nosoz transport vositalarini yo'lga chiqarishdan avtogarajga qaytarish;

– ashyolar va hujjatlarni olib qo'yish (o'qotar qurol va o'q-dorilarni olib qo'yish);

– litsenziya berishni rad etish, litsenziyani amal qilishini to'xtatib qo'yish yoki uni bekor qilish;

– moliya-kredit xususiyatiga ega bo'lgan choralar (moliya-kredit intizomini buzish yo'li bilan olingan pullarni qaytarib olish, korxonaning bankdagi pul mablag'larini xatlash).

Ma'muriy majburlashning keyingi zaruriy turi hisoblangan **ma'muriy jazo** – davlat boshqaruvi sohasida vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni buzgan, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslar uchun kodeksda belgilangan tartibda qo'llaniladigan davlatning huquqiy majburlovidir.

Turli huquq tarmoqlarida tartibga solinadigan va qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni aybdor shaxs tomonidan buzganlik uchun yuridik javobgarlik nazarda tutiladi. Yuridik javobgarlik aybdor shaxsga nisbatan muayyan jazo qo'llashda namoyon bo'ladi. Masalan, mehnat intizomi buzilganda – intizomiy jazo, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganda – ma'muriy jazo, jinoyat sodir etilganda – jinoiy jazo qo'llaniladi.

Ma'muriy jazo – maqsadiga ko'ra ma'muriy majburlov choralarining bir turi bo'lib hisoblanadi. Ma'muriy jazo – ma'muriy majburlovning boshqa choralaridan farqli ravishda huquqbuzar tomonidan ma'muriy qonunchilik hujjatlari bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinganda, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgandagina qo'llaniladigan o'ziga xos maqsadga ega jazo sanksiyalari bo'lib, ma'muriy-protsessual tartibda amalga oshiriladi.

Ma'muriy jazo – O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi bilan, ma'muriy majburlovning boshqa choralarini esa, turli normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 22-moddasida ma'muriy jazoning maqsadi to'liq o'z ifodasini topgan va unga ko'ra ma'muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi bo'lib, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Shu bois jazolash – ma'muriy jazoning asosiy maqsadi emas, balki huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni Konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, huquq-tartibotni ta'minlash, ushbu shaxsning o'zi va boshqa shaxslar tomonidan yangi huquqqa xilof qilmishlar sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Shu bilan birga, ma'muriy jazo, ma'lum bir ma'noda, jinoyatlarning oldini olishga ham xizmat qiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadilar: “Jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurash samaradorligi jazoning og'irligi va shafqatsizligiga emas, balki birinchi navbatda, qonunni buzgan shaxsning jazoning muqarrarligini nechog'lik anglashiga bog'liq. Jazoning muqarrarligi jinoyatchilikning oldini olishda samarali ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi”¹.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – Б.15.

Ma'muriy jazo – ma'muriy qonunchilikka asosan, huquqbuzarlik sodir etishda aybli deb topilgan shaxsга nisbatan davlat nomidan vakolatli organ mansabdor shaxs tomonidan qo'llaniladigan va huquqbuzarni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni vaqtincha cheklashdan iborat majburlov chorasi bo'lsa-da, huquqbuzarni qiynoqqa solish, zo'rvonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etish maqsadini ko'zlamaydi. Buning isboti Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 8-moddasining qoidasida o'z aksini topgan, ya'ni ma'muriy huquqbuzarlik uchun hech kim mamlakatimiz Konstitutsiyasidan kelib chiquvchi qonunchilik hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibdan boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatish chorasiga tortilishi mumkin emas. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish qonuniylikka rioya qilish asosida olib boriladi.

Tegishli vakolat berilgan organlar va mansabdor shaxslar ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralari o'z vakolatlari doirasida qo'llaydilar hamda ma'muriy huquqbuzarlik uchun ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanish chog'ida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi vakolatli yuqori turuvchi organlar va mansabdor shaxslar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib turilishi bilan, prokuror nazorati bilan, shikoyat berish huquqi bilan ta'minlanadi².

Demak, yuqorida keltirilgan fikrlar va masalalardan kelib chiqib, ma'muriy majburlash choralari har qanday davlat va jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlashdagi ahamiyati beqiyosdir, deb ta'kidlashimiz mumkin. Ma'muriy majburlash choralari umumiy maqsadi va vazifalari o'zaro uyg'un holda bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur choralarning vazifalari inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash, huquqbuzarliklar va jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi holatlarni sodir etilishining oldini olish, zararli oqibatlarining yuz berishini bartaraf etish hamda sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun adolatli jazoning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

II bob.

ICHKI ISHLAR IDORALARI TOMONIDAN MA'MURIY MAJBURLASH CHORALARINI QO'LLASHNI TARTIBGA SOLUVCHI HUQUQIY ASOSLAR VA ULARNING TAHLILI

Ma'lumki, har bir davlatda mavjud har qanday organlar, muassasalar, tashkilotlar o'z faoliyatini muayyan huquqiy asoslarga tayangan holda amalga oshiradilar. Shuningdek, davlat organlari, muassasa va tashkilotlar o'z oldiga qo'yilgan funktsiya va vazifalarini amalga oshirishda ham ma'lum bir huquqiy asoslarga tayanadi. Yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham huquqiy asoslar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yurisprudensiyada "huquqiy asos, huquqiy maqom, huquqiy negiz", kabi kategoriyalar mavjud bo'lib, nazariya va amaliyotda ko'p qo'llaniladi.

Bu borada davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Mustahkam huquqiy negiz bo'lgandagina, o'zini oqlamagan eski tizimni to'la ishonch bilan qayta qurish, madaniy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan yangi jamiyat qurish mumkin"¹. Ayni vaqtda, davlatning faol tashkilotchilik va ijobiy bunyodkorlik rolga ham alohida urg'u beriladi. "Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo'nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqish va izchil ro'yobga chiqarishi kerak"².

Huquqshunos olimlar U.Tadjixanov, A.Saidovlar huquqiy asosga quyidagicha ta'rif berganlar. Huquqiy asos – bu oliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan chiqarilgan, amaldagi qonunchilikda muayyan faoliyatni yoki munosabatlarni amalga oshirishga huquqiy sharoit yaratib beruvchi, huquq va majburiyatlar bilan ta'minlovchi hamda huquqiy tartibga soluvchi normativ-huquqiy aktlar majmuidir³.

Mamlakatimizda barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qodir bo'lgan eng oliy huquqiy asos bu albatta Asosiy qomusimiz – respublikamiz Konstitutsiyasidir. Zero, yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "O'zbekistonimizning mustaqil taraqqiyot yillarida erishgan barcha-barcha yutuq va marralari, uning ulkan sur'atlar bilan

¹ Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т., 1996. – Б.192.

² O'sha manba. – B. 178.

o'sishi avvalo Konstitutsiyamizning hayotbaxsh qudrati va salohiyatini, unda mujassam bo'lgan prinsiplar, qoida va normalarning naqadar chuqur o'ylangani, har tomonlama mustahkam asosga ega ekanini yaqqol namoyon etadi. Ichki ishlar idoralari tomonidan ma'muriy majburlash choralarning qo'llanilishi ham albatta, huquqiy tartibga solinishi hamda huquqiy asoslariga ega bo'lishi zarur bo'lgan faoliyatlardan biridir.

Shu bois, ichki ishlar idoralari tomonidan ma'muriy majburlash choralari qo'llashni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni quyidagi ketma-ketlikda, ya'ni xalqaro huquqiy asoslar, milliy-huquqiy asoslarning umumiy va maxsus normativ-huquqiy hujjatlar doirasida ko'rib chiqishimiz mumkin.

O'zbekiston xalqi Asosiy qonunimizning muqaddimasida: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilganligi belgilangan. Mazkur qoidalaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritishining dastlabki kunlaridanoq respublikamizda inson huquqlarini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish maqsadida inson huquqlariga oid asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlar talablarini bosqichma-bosqich qabul qilib ularni ratifikatsiya qildi.

Jumladan, 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi – O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1991-yil 30-sentabrda imzolangan. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi. Keyingi bosqichda mamlakatimiz Inson huquqlari to'g'risidagi bill (qonun): Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil 16-dekabr); Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil 16-dekabr); Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga fakultativ protokol (1966-yil 16-dekabr)ga qo'shildi. Shuningdek, "Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya" (1984-yil 10-dekabr) kabi xalqaro huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1995-yil 31-avgustda imzolangan.

Majburlov choralarning qo'llanishi borasida Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 5-moddasida "Hech kim qiynoqqa solinishi, yoki shafqatsiz, noinsoniy zazyiqqa duchor etilishi, yoki qadr-qimmatining kamsitilishi, jazoga tortilishi mumkin emas"ligi shuningdek Deklaratsiyaning 9-moddasida "Hech kim o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinishi, ushlanishi yoki badarg'a qilinishi mumkin emas"ligi belgilangan.

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi Konvensiyaning qoidalarida, xususan 2-moddasida quyidagilar belgilangan:

1. Har bir ishtirokchi davlat uning yurisdiksiyasidagi istalgan hududda qiynoq harakatlarining oldini olish uchun samarali qonun chiqarishi, ma'muriy, sudlov va boshqa choralarni ko'rishi mumkin.

2. Hech qanday favqulodda holatlar, ular qanday bo'lmasin: xoh urush holatimi yoki urush xavfimi, ichki siyosiy beqarorlikmi yoki boshqa istalgan favqulodda holat ekanligidan qat'i nazar, qiynoqni oqlashga xizmat qilolmaydi.

3. Yuqori turgan boshliq yoki davlat hokimiyatining buyrug'i qiynoqni oqlashga xizmat qilolmaydi.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, ichki ishlar idoralari xodimlari ma'muriy majburlash choralari qo'llashda inson huquqlari bo'yicha o'rnatilgan xalqaro standartlar, milliy qonunchilikda nazarda tutilgan me'yorlar doirasida ish tutishlari, qonunga rioya etishlari lozim. Shu bilan bog'liq ravishda inson huquqlarining ichki ishlar idoralari xodimlari uchun ahamiyatini belgilab beruvchi omillar, shuningdek, inson huquqlarini ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan o'rganish zaruriyati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

birinchidan, inson huquqlari madaniyati III xodimlari kasb mahoratining tarkibiy qismi hisoblanadi;

ikkinchidan, BMT hujjatlariga ko'ra, ichki ishlar idoralari xodimlari inson huquqlarini o'rganishi majburiy bo'lgan davlat xizmatchilari toifasiga kiradi;

uchinchidan, ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan huquqni amalda qo'llash faoliyati ularning huquqiy ongini doimo oshirib borishni talab qiladi va inson huquqlari haqidagi bilimlar bu jarayonning tarkibiy qismidir;

to'rtinchidan, ichki ishlar idoralari xodimlarining barcha faoliyat turlari (huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash, tezkor-qidiruv faoliyati) inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarga rioya qilishni talab etadi;

beshinchidan, inson huquqlari bo'yicha barcha xalqaro shartnomalarning qoidalarini ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy faoliyatiga bevosita bog'liqdir.

Milliy-huquqiy asoslar doirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi 2012-yil 24-dekabr qonunida, normativ-huquqiy hujjat tushunchasi, turlari va ularga qo'yiladigan talablar o'z aksini topgan bo'lib, ushbu qonunning 5-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarning quyidagi turlari belgilangan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Shuningdek, ushbu qonunda normativ-huquqiy hujjatlar qonun xujatlari xisoblanishi va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qilishi bayon etilgan¹. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar idoralarining ma'muriy majburlash choralarini qo'llash faoliyatining umumiy huquqiy asoslariga quyidagilar taalluqlidir.

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlarning prinsipial qoidalarini o'zida mujassam etgan respublikamiz Konstitutsiyasi – inson huquq va manfaatlarini, uning erkinliklari davlat manfaatlaridan ustunligini mustahkamladi, odamlarimiz uchun munosib hayot sharoiti yaratishni o'zining tub maqsadi etib belgiladi, ijtimoiy adolat tamoyillarini e'lon qildi. Konstitutsiyamiz qonun ustuvorligi, uning barcha fuqarolar uchun tengligini va shuningdek, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishining huquqiy prinsipini belgilab berdi, ularning mustaqilligi, mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatida rivojlanishini kuchaytirishga, demokratik davlatning asosiy hal qiluvchi sharti bo'lgan hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali mexanizmini shakllantirishga qaratilgan qonuniy negizni yaratdi.

¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2012. – 52-сон. – 583-м.

Konstitutsiyamizning quyidagi moddalari majburlash choralarini qo'llanishi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Konstitutsiyaning 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul"ligi belgilangan. 13-moddada "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi" deb qayd etilgan. 14-moddada esa "Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi" deb bayon qilingan.

Konstitutsiyaning 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'rishlari" belgilangan. 18-moddada "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart" deb belgilangan. 19-moddada "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas" deb bayon etilgan.

20-moddada "Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlarini, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart"ligi belgilangan. 23-moddada "O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar" deb belgilangan.

Konstitutsiyaning 25-moddasida "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas"ligi e'tirof etilgan. 26-moddada "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi

sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas"ligi qayd etilgan. 27-moddada Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega. Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari birovning turarjoyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas"ligi mustahkamlangan.

Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar asosida quyidagi qonunlar qabul qilinib, ular tegishli sohalardagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Jazoni ijro etish joylaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati to'g'risida"gi 1992-yil 9-dekabr qonuni bilan jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati tarbiyaviy oldini olish ta'sir choralari majmuini ifodalab, nazorat ostidagilarga nisbatan ushbu qonunda ko'zda tutilgan cheklashlarni qo'llashdan iborat bo'ladi. Mazkur qonunga binoan ma'muriy nazoratni amalga oshirish nazorat ostidagi shaxsning istiqomat joyidagi ichki ishlar idoralariga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Surunkali alkogolizm, giyohvandlikka, zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida"gi 1992-yil 9-dekabr qonuniga binoan jamoat tartibini, boshqa shaxslarning huquqlarini buzayotgan, yoxud aholining osoyishtaligiga, salomatligiga va ma'naviyatiga xavf tug'dirayotgan surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarga nisbatan majburiy davolash qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortishni, shuningdek ma'muriy majburlash choralarining qo'llanilishini tartibga soluvchi qonun hujjati sifatida xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, yurisprudensiyada kodeks (lotincha "kodyex" so'zidan olingan ibora – kitob, qonunlar to'plami degan ma'nolarni bildiradi) – ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi, ustuvor

huquq normalarini o'zida mujassamlashtirgan va tizimlashtirilgan huquqiy hujjat – qonun bo'lib, unda huquq tarmog'ining barcha normalari mantiqan mutanosiblashtiriladi. Dastlab mazkur kodeks 2 qism 5 bo'lim 31 bob va 348 ta moddadan iborat bo'lgan. Sir emaski, hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi. Shu bois, mazkur davr mobaynida kodeks zamon talabidan kelib chiqqan holda rivojlanib takomillashib bordi. Uning tarkibidagi moddalarga tegishli o'zgartishlar, qo'shimchalar, shuningdek yangi moddalar kiritilib bordi, ayrim ahamiyati eskirgan moddalar esa kodeksdan chiqarildi.

Kodeksga obyektiv zarur bo'lgan o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilib yurtimizda Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligi ostida amalga oshirilayotgan islohotlarga mos ravishda takomillashib bordi.

Mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlash-tirish, sud-huquq tizimini isloh etish jarayonlarini amalga oshirish maqsadida ko'plab qonun va qonun osti hujjatlarining qabul qilinishi natijasida O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga ham 90 dan ziyod qonunlar bilan o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Ushbu Kodeksda ma'muriy majburlash choralari qo'llash vakolatiga ega bo'lgan tegishli davlat organlari (mansabdor shaxslar) va ularning vakolatlari, ma'muriy majburlash choralari qo'llash asoslari, tartibi, muddatlari, shuningdek tuzilishi kerak bo'lgan hujjatlar belgilangan. Jumladan, ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, ma'muriy huquqbuzarlik uchun ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanish vaqtida qonuniylikni ta'minlash, ma'muriy jazo choralari va ularni qo'llash tartibi, muddatlari, ma'muriy javobgarlikka tortish, shuningdek, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni ta'minlash choralari, huquqbuzarni ushlab keltirish, shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish, uning ashyolari, transport vositalarini ushlab turish va ko'rikdan o'tkazish asoslari, tartibi, ashyo hamda hujjatlarni olib qo'yish, transport vositasini boshqarishdan chetlatish, mastlik holatini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tkazish kabi ta'sir choralari qo'llash tartibga solingan. Biroq, kodeksga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishiga qaramay, fikrimizcha, unda hozirgi kunda ham bir qancha hal etilishi lozim bo'lgan masalalar mavjud. Zero, 2010-yil 12-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Faol rivojlanib borayotgan demokratlashtirish jarayonlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi

kodeksini har tomonlama qayta ishlash va yangi tahrirda qabul qilish zarur. Uning yangi tahriri sud-huquq tizimini liberallashtirish munosabati bilan ma'muriy qonunchilik va jinoyat-huquqiy siyosatda yuz bergan katta miqyosdagi prinsiplar o'zgarishlarni o'zida tizimli va keng ko'lamli tarzda aks ettirishi lozim.

Bunda avvalambor jinoyat qonunchiligini tobora liberallashtirish, ya'ni, ayrim qonunbuzarlik holatlarini jinoyat yurisdiksiyadan ma'muriy yurisdiksiyaga o'tkazishni ko'zda tutish zarur. Kodeksning yangi tahrirda qabul qilinishi bugungi kunda o'nlab normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan ma'muriy javobgarlikka oid qonunchilikning unifikatsiyalashuvini, ya'ni birxillashuvini ta'minlaydi"¹.

Nazarimizda, mazkur Kodeksda ma'muriy majburlashning yana quyidagi choralari huquqiy tartibga solingan bo'lishi kerak:

- majburiy ushlab keltirish tartibi;
- chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni O'zbekiston Respublikasi hududidan ma'muriy tarzda chiqarib yuborish tartibi.

O'zbekiston Respublikasining "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi qonuniga temir yo'l tashish xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 8-sentabr qonunining 12-moddasida "Yo'lovchilarning hamda temir yo'l transporti xodimlarining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, temir yo'l tashish xavfsizligini ta'minlash maqsadida vakolatli organlar vokzalga kirishda belgilangan tartibda qo'l yukini, bagajni ko'zdan kechirishi hamda yo'lovchilar va boshqa shaxslarni shaxsiy ko'zdan kechirishdan o'tkazishi" belgilangan. Shuningdek, "Temir yo'l tashish xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat nazorati va boshqa choralar" deb nomlangan 20¹-moddasi binoan Temir yo'l tashish xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat nazorati va boshqa choralar ichki ishlar, Milliy xavfsizlik xizmati organlari hamda O'zbekiston Respublikasi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiya tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshirilishi qayd etilgan¹.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ichki ishlar idoralari ma'muriy majburlash choralari qo'llash faoliyatining umumiy huquqiy asoslaridan

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – Б.26.

tashqari ushbu faoliyat quyidagi maxsus huquqiy hujjatlar bilan ham bevosita tartibga solinadi.

Ma'lumki, respublikamiz istiqbolga erishgan kunlaridanoq mamlakatimizda jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi samarali kurashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar idoralari faoliyatining huquqiy asoslari ham bosqichma-bosqich yaratilib, bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Dastlab, mamlakatimizda vujudga kelgan ahvolni e'tiborga olib va respublika manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Respublika Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olinishi haqida»gi 1991-yil 25-avgust farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi nizomini tasdiqlash to'g'risida»gi 1991-yil 25-oktabrdagi 270-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur nizomga asosan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Vazirlik o'z huquqi doirasida fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamoat tartibini, jamoat xavfsizligini muhofaza qilishni va jinoyatchilikka qarshi kurashni ta'minlaydi¹. Ichki ishlar idoralari faoliyatining asosiy funktsiya va vazifalarining mazmuni uning ma'muriy, tezkor-qidiruv, jinoyat-protsessual kabi asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilaydi.

Vazirlik jinoyatlar hamda jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlarning o'z vaqtida oldini olish tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat tartibini saqlash bo'yicha respublika tadbirlarini o'tkazishni kuchlar va vositalar bilan boshqaradi; sudlarning ajrimlari, prokurorlarning qarorlari va tergovchilar hamda dastlabki tergovni olib borgan shaxslarning prokuror tomonidan qamoqqa olish xulosasi to'g'risida sanksiya berilgan qarorlarining, shuningdek, qonunchilik tomonidan ichki ishlar organlari zimmasiga ijro etish yuklatilgan majbur etishning boshqa choralari qo'llanishi haqidagi boshqa qarorlarning ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlik vakolati doirasida buyruqlar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalar va boshqa aktlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining "Profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi bo'yicha Yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida"gi 2001-yil

28dekabrda 328-sonli buyrug‘i bilan profilaktika inspektorlari tomonidan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi hujjatlarni rasmiylashtirish, ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish muddatlari, ma‘muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritish va ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomalarni rasmiylashtirish tartiblari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining «Jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarida ma‘muriy nazorat o‘rnatish va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Yuriknomani tasdiqlash haqida»gi 2002-yil 26-fevraldagi 51-sonli buyrug‘i bilan O‘zbekiston Respublikasining «Jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma‘muriy nazorati to‘g‘risida»gi qonuni va unga kiritilgan keyingi o‘zgartishlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, jazoni ijro etish muassasalaridan bo‘shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarida ma‘muriy nazorat o‘rnatish va uni amalga oshirish tartiblarini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining «YO‘L harakati qoidalarining buzilishiga doir ma‘muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi 2011-yil 31-may 68-sonli buyrug‘i bilan ichki ishlar idoralari tomonidan yo‘l harakati qoidalarini buzilishiga doir ma‘muriy ishlarni ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2012-yil 13-fevraldagi 7, 5 va 22-sonli qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari, shuningdek ularga tenglashtirilgan tashkilotlar xodimlariga nisbatan Yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlik choralari qo‘llash haqidagi yo‘riqnomani tasdiqlangan. Ushbu Yo‘riqnomani Diplomatiq aloqalar to‘g‘risida 1961-yil 18-apreldagi Vena Konvensiyasi 41-moddasining 1-bandiga, Konsullik aloqalari to‘g‘risida 1963-yil 24-apreldagi Vena Konvensiyasi 55-moddasining 1-bandiga va O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 17-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari, shuningdek ularga tenglashtirilgan tashkilotlar xodimlariga (va ularning oila a‘zolariga) nisbatan yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun ma‘muriy javobgarlik choralari qo‘llash tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining «Texnik ko‘rikdan o‘tkazishda DYHXX organlari tomonidan nosoz deb topilgan, shuningdek belgilangan muddatlarda texnik ko‘rikdan o‘tmagan yoki tegishli ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositalarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilarini yechib olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 2012-yil 4-apreldagi 53-sonli buyrug‘i bilan Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati organlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkazishda DYHXX organlari tomonidan nosoz deb topilgan transport vositasining, shuningdek belgilangan muddatlarda texnik ko‘rikdan o‘tmagan yoki tegishli ruxsatnomasiz qayta jihozlangan transport vositasining davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilarini yechib olish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining 2012- yil 23-apreldagi 13 va 2-son qarori bilan “Avtovokzallar va avtostansiyalar hududiga yo‘lovchilar va boshqa shaxslarni kiritish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani” tasdiqlangan. Mazkur Yo‘riqnomani avtotransport vositalarida yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlash, odamlarning hayoti va sog‘lig‘ini hamda avtovokzallar va avtostansiyalar obyektlarini noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilish maqsadida yo‘lovchilar va boshqa shaxslarning qo‘l yukini, bagajini va o‘zini nazoratdan o‘tkazish tartibini, shuningdek nazoratdan o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar talablari doirasida hamda ularda belgilangan tartibda ichki ishlar idoralari tomonidan ma‘muriy majburlash choralari qo‘llanilishi kerak, aks holda bunday harakatlar inson huquqlarini cheklash, qonuniylikning qo‘pol ravishda buzilishiga olib keladi.

III bob.
ICHKI ISHLAR IDORALARI TOMONIDAN MA'MURIY
MAJBURLASH CHORALARINI QO'LLASH TARTIBI VA
PROTSESSUAL TALABLAR.

Ichki ishlar idoralari boshqa huquq-tartibot xizmatlari bilan hamkorlikda el-yurt osoyishtaligi, bunyodkorlik mehnati, inson huquqlari himoyasini mustahkamlashda kamarbastalik qilmoqda.

Ichki ishlar idoralari kasbiy xizmat faoliyati yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, ular tomonidan qo'llaniladigan majburlash choralari, ularni qo'llash tartibi, asoslari va maqsadiga qarab bunday choralarning quyidagi xususiyatlarini e'tirof etish mumkin:

ichki ishlar idoralari faoliyatida ma'muriy majburlash choralari qo'llanilishi tegishli sohaviy xizmatlarning asosiy funksional vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bularga asosan, huquqbuzarliklarning oldini olish, patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, xorijga chiqish, kirish va fuqarolikni rasmiylashtirish kabi xizmatlar kiradi.

Ichki ishlar idoralari tomonidan majburlash choralari qo'llashning huquqiy asoslarini qonunchilik hujjatlari va idoraviy normativ hujjatlar (nizom, yo'riqnoma) tashkil qiladi.

Ma'muriy majburlashning maxsus ma'muriy cheklash choralari hisoblangan jismoniy kuch ishlatish (qo'l jangi, sambo usuli), maxsus vositalar (qo'l kishanlari, rezina tayog'i), zarur hollarda qurol ishlatish kabi ta'sir choralari qo'llashning alohida tartibi mavjud.

Ma'muriy majburlash choralari qo'llash vakolatiga ega bo'lgan ichki ishlar idoralari xodimlari o'z hokimiyat vakolatlarini amalga oshirishda qonun hujjatlari bilan alohida huquqiy muhofazalanganligi. Masalan, ichki ishlar idoralari xodimlarining g'ayrihuquqiy harakatlarni to'xtatish to'g'risidagi qonuniy talabi, farmoyishini bajarmaslik ma'muriy javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deb hisoblanadi, yoki militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik shaxsni ma'muriy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks qanday harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik hisoblanishini, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan qaysi organ (mansabdor shaxs) tomonidan qay tartibda qanday ma'muriy jazo qo'llanilishi va ijro etilishini belgilaydi.

Ichki ishlar idoralari tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy oldini choralari.

Mazkur choralarga hujjatlarni tekshirish, ma'muriy nazorat, transport vositalarini va yo'lovchilarning harakatlanishini taqiqlash (cheklash), shaxsni ko'rikdan o'tkazish va ashyolarni ko'zdan kechirish (MJtK 289-m.), ashyolar va hujjatlarni olib qo'yish (MJtK 290-m.) kiradi.

Hujjatlarni tekshirish vaqtida fuqarolarning kimligi, tekshirilayotgan hujjatlarning haqiqatdan ham shu shaxsga tegishliligi hamda hujjatlarning haqiqiyliги aniqlanadi. Xodim bir shaxsni jinoyat sodir etganlikda gumon qilsa, undan o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatini ko'rsatishni talab qilishi mumkin. Yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlari transport haydovchilarining haydovchilik guvohnomalarini, texnik pasportini yoki yo'l varaqasini tekshirishlari mumkin. Bu jarayon albatta tegishli huquqiy hujjatlar talabi asosida, shuningdek shaxsiy xavfsizlik choralariga rioya qilingan holda amalga oshirilishi lozim.

Ichki ishlar idoralari tomonidan *ma'muriy nazoratni* shartli ravishda umumiy va maxsus turlarga ajratish mumkin. Ichki ishlar idoralari umumiy nazorati deb, ularning kundalik ma'muriy faoliyatida davlat-hokimiyat vakolatlari doirasida o'tatilgan qoidalarga rioya qilinishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi. Bunday nazoratga pasport tizimi qoidalari, nazorat-litsenziya, yong'in xavfsizligi, yo'l harakati xavfsizligi qoidalari rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat kiradi.

Ma'muriy nazorat quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

a) ma'muriy nazorat qonun va qonun osti hujjatlarining talablarini amaliyotga joriy etish bo'yicha ichki ishlar idoralari ma'muriy faoliyatining shakllaridan biri;

b) ma'muriy nazorat xuquqbuzarliklarning oldini olish, uni to'xtatish maqsadida amalga oshiriladi;

d) ma'muriy nazorat qonun talablarini jamoat ta'siri yoki davlat majburlov choralari vositasi yordamida huquqbuzarliklardan muhofaza etadi.

Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat (maxsus ma'muriy nazorat). O'zbekiston Respublikasining "Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralari tomonidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi 1992-yil 9-dekabr qonuniga asosan tashkil qilinadi.

Ma'muriy nazoratning asosiy maqsadi ilgari sudlanganlar tomonidan takroran jinoyat sodir etilishining oldini olish, ularning ijobiy ijtimoiy yo'lga kirib olishiga yordamlashishdan iborat.

Ma'muriy nazorat vaqtida nazorat ostidagi shaxsning boshqa huquq va qonuniy manfaatlariga putur yetkazilmasligi, kamsitilmasligi, ish, o'qish va yashash joyida obro'si to'kilmasligi lozim.

Ma'muriy nazorat voyaga yetgan quyidagi shaxslarga nisbatan o'rnatiladi:

a) og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ularning jazoni o'tash davridagi xulq-atvori tuzalish va halol mehnat qilib kun kechirish yo'liga o'tishni aslo istamaganliklaridan dalolat bersa;

b) og'ir jinoyatlar uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan yoki har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta hukm etilgan shaxslarga nisbatan, agar ular jazo muddatini o'tab bo'lganliklaridan so'ng ichki ishlar idoralarining jamiyat uchun zararli kun kechirishni to'xtatish to'g'risidagi ogohlantirishiga qaramay, jamoat tartibini muntazam buzayotgan va fuqarolarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazayotgan bo'lsa;

d) o'ta og'ir jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan.

Ma'muriy nazoratga olingan shaxslarga nisbatan quyidagi taqiqlovchi ma'muriy oldini olish choralarini qo'llanilishi mumkin:

a) ichki ishlar idoralari belgilab kuygan vaqtda uy (kvartira)dan chiqib ketish;

b) tuman (shahar)ning muayyan joylarida bo'lish;

d) ichki ishlar idoralarining ruxsatisiz tuman (shahar)dan tashqari chiqib ketish;

y) ro'yxatdan o'tish uchun har oyda bir martdan to'rt martagacha ichki ishlar idoralariga kelib uchrashish zarurligi.

Yuqorida ko'rsatilgan choralar nazorat ostida bo'lgan shaxsning turmush tarziga, oilaviy ahvoliga, avvalgi sudlanganligiga va uning shaxsini tavsiflovchi boshqa holatlarga qarab to'la hajmda yoki ayrim-ayrim yo'sinda qo'llaniladi. Cheklashlar ro'yxati uzil-kesil hisoblanadi, unga qo'shimchalar qilish yoki kengaytirib sharhlash mumkin emas.

Sudyaning qarori ma'muriy nazorat o'rnatish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Ma'muriy nazorat olti oydan bir yilgacha muddatga belgilanadi. Bu muddat ichki ishlar idoralarining taqdimnomasiga binoan har safar yana olti oyga uzaytirilishi mumkin, lekin uzaytirilgan nazorat

muddati mazkur jinoyat uchun belgilangan sudlanganlik muddatining tugashi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi uchun qonunda nazarda tutilgan muddatlardan oshmasligi lozim. Cheklashlar ro'yxati nazorat ostidagi kishining shaxsi, uning turmush tarzi va xulq-atvoriga qarab, "Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati to'g'risida"gi qonunning 5-moddasida nazarda tutilgan choralar doirasida sudya tomonidan qisqartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

Ma'muriy nazorat quyidagi hollarda to'xtatiladi:

a) ma'muriy nazorat olib borish uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin uni uzaytirishga asos bo'lmasa;

b) muddatidan ilgari, basharti nazorat ostida bo'lgan shaxs tuzalish yo'liga qat'iy o'tganligi, ishda va turmushda o'zining yaxshi tomonlarini ko'rsatganligi aniqlangan bo'lsa;

d) nazorat ostida bo'lgan shaxsning sudlanganlik muddati tugagan yoki sudlanganligi olib tashlangan hollarda.

Ichki ishlar idoralari tomonidan qo'llaniladigan ma'muriy cheklash choralari. umumiy cheklash choralari va maxsus cheklash choralariga ajratish mumkin. Umumiy cheklash choralariga ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, transport vositasini ushlab turish, transport vositasini boshqarishdan chetlatish, majburiy davolash kabi choralar kiradi.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish – huquqbuzarning shaxsiy erkinligini vaqtincha cheklab qo'yishdir. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risida bayonnoma tuzilishi kerak. Ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko'ra, u ushlab turilgan joy haqida uning qarindosh-urug'lariga, ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyatga xabar beriladi. Voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar albatta xabardor qilinadi. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turishga MJtKning 287-moddasiga binoan ichki ishlar idoralari haqlidir. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddatlari MJtKning 288-moddasida aniq belgilangan. Unga asosan, ma'muriy yo'l bilan ushlab turish uch soatdan ortiq davom etishi mumkin emas. Ayrim hollarda alohida zarurat munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida ma'muriy yo'l bilan ushlab turishning boshqacha muddatlari belgilanishi mumkin.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish muddati huquqbuzar bayonnoma tuzish uchun olib kelingan paytdan boshlanadi, mast holdagi shaxslar uchun esa bu muddat ular hushyor tortganidan boshlab hisoblanadi.

Chegara tartibini yoki O‘zbekiston Respublikasi davlat chegarasi orqali o‘tish punktlaridagi tartibni buzgan shaxslar bayonnoma tuzish uchun uch soatgacha ushlab turilishi mumkin, huquqbuzarning shaxsini va huquqbuzarlik holatlarini aniqlash uchun zarur hollarda esa - ushlab turilishdan boshlab yigirma to‘rt soat ichida prokurorga yozma tarzda ma’lum qilib, uch sutkagacha yoki huquqbuzarda o‘zining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bo‘lmasa, prokurorning sanksiyasi bilan o‘n sutkagacha ushlab turilishi mumkin.

MJtKning 56–58, 61, 90-moddalarida, 164-moddasining 3-qismida, 170, 18Z, 184, 184I, 184, 191, 194, 195, 201, 204–206, 210-moddalarida, 225-moddasining 1-qismida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarlik sodir etgan yoxud o‘zining shaxsi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yashirgan shaxslarning huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishi ma’muriy ishlar bo‘yicha sudya yoki ichki ishlar organi boshlig‘i (boshliq o‘rinbosari) tomonidan ko‘rib chiqilgunga qadar, lekin uzog‘i bilan 24 soatgacha ushlab turilishi mumkin.

Transport vositalarini ushlab turish va ko‘rikdan o‘tkazish. Ushlab turish sababi bartaraf etilgunga va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish ko‘rilgunga qadar amalga oshirilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi MJtKning 291-moddasiga asosan transport vositalarini haydovchilar tomonidan MJtK 125-moddasining 3, 5 va 6-qismlarida, 125¹-moddasining 2-qismida, 126, 128⁶, 131, 135, 135¹, 136-moddasining 1 va 2-qismlarida, 137, 176³-moddalarida, 194-moddasida (militsiya xodimining transport vositasini to‘xtatish to‘g‘risidagi qonuniy talabini bajarmaslik qismida) nazarda tutilgan huquqbuzarlik sodir etilganda, shuningdek qonun hujjatlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan boshqa hollarda – ichki ishlar idoralari tomonidan ushlab turiladi.

Majburiy davolash tartibi. O‘zbekiston Respublikasining “Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtal bo‘lgan bemorlarni majburiy davolash to‘g‘risida”gi 1992-yil 9- dekabr qonuniga asosan surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtal bo‘lgan bemorlarni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining maxsus davolash-oldini olish muassasalarida mehnatga muqarrar jalb etish orqali majburiy davolash belgilab qo‘yilgan. Jamoat tartibini, boshqa shaxslarning huquqlarini buzayotgan, yoxud aholining osoyishtaligiga, salomatligiga va ma’naviyatiga xavf tug‘dirayotgan surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtal bo‘lgan bemorlarga nisbatan majburiy davolash qo‘llaniladi.

Shaxsni surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtal bo‘lgan bemor deb topish O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi belgilagan tartibda tegishli davolash muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxs majburiy davolashga jo‘natish uchun tibbiy ko‘rikdan o‘tishdan bosh tortgan hollarda, u ichki ishlar idoralari tomonidan ko‘magida o‘n kun muddat ichida narkologiya muassasasida majburiy tarzda tekshirilishi kerak.

Mazkur toifadagi shaxslarni majburiy davolashga yuborish to‘g‘risidagi materiallar tibbiy xulosa bo‘lgan taqdirda ichki ishlar idoralari tomonidan ularning o‘z tashabbusiga ko‘ra, yoki bemorning oila a‘zolari yoxud qarindoshlarining, mehnat jamoalarining, sog‘liqni saqlash muassasalarining iltimosnomalari asosida tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi.

Sudning shaxsni majburiy davolashga yuborish to‘g‘risidagi qarori ichki ishlar idoralari tomonidan bu qaror qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab kechi bilan o‘n kunlik muddat ichida ijro etiladi.

Maxsus ma’muriy cheklash choralari qayidagilar taalluqli. Ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan jismoniy kuch, maxsus vositalar va o‘qotar qurolni qo‘llash tartibi qonun bilan tartibga solinishi lozim. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining “Mustaqil davlatlar hamdo‘stligini tuzish to‘g‘risidagi bitimni va protokolni ratifikatsiya qilish haqida” 1992-yil 4-yanvar qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlari qabul qilinguniga qadar uning hududida sobiq SSSR qonunlarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga zid kelmaydigan qismlari qo‘llanilishi belgilangan¹. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar idoralari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinmaganligi sababli sobiq Ittifoqning 1991-yil 6- martdagi “Militsiya to‘g‘risida”gi qonunining 14- va 15-moddalari bilan tartibga solinadigan jismoniy kuch, maxsus vositalarni qo‘llash va quroldan foydalanish tartibi amaliyotda o‘z kuchida qolmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi 2012-yil 24-dekabr qonunining 5-moddasiga binoan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari ham normativ-huquqiy hujjatlarning turi sifatida qayd etilgan.

Shu bois, quyidagi qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli qonun osti normativ-huquqiy hujjatlari buyruq va yo‘riqnomalari bilan ichki ishlar

idoralari xodimlari, Qorovul qo'shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan jismoniy kuch, maxsus vositalar va o'qotar quroldan foydalanish hamda qo'llash tartibga solingan. Amaldagi qonunchilik va ushbu qonun osti normativ-huquqiy hujjatlar talablariga to'liq rioya etgan holda ichki ishlar idoralari xodimlari zimmalariga yuklatilgan xizmat vazifalarini bajarishda maxsus ma'muriy cheklash choralarini qo'llaydilar.

Ushbu hujjatlarga binoan xizmatni o'tash davrida patrul-post naryadlari qo'l kishanlari, rezina tayoqlar, ko'zni yoshlantiradigan moddalar, chalg'ituvchi yorituvchi qurilmalar va boshqa maxsus vositalardan, kurashning jangovar usullaridan, xizmat iti, shuningdek maxsus va boshqa transport vositalaridan quyidagi hollarda foydalanish(qo'llash) xuquqiga egalar:

– fuqarolarga, ichki ishlar idoralari xodimlariga, xizmat vazifasini yoki jamoat tartibini saqlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashga doir o'z xizmat burchini o'tayotgan davrda va boshqa shaxslarga bo'ladigan hujumni qaytarishda, shuningdek garovga olinganlarni ozod qilishda;

– jamoat tartibining guruh bo'lib buzilishi va ommaviy tartibbuzarliklarning oldini olishda hamda bartaraf etishda;

– fuqarolarga, davlat va jamoatchilik uyushmalari idoralariga, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga tegishli binolar, xonalar, inshootlar va transport vositalariga qilinadigan hujumni qaytarishda:

– qonunbuzarlarni ushlab, ularni ichki ishlar idoralariga olib borishda, hibsga olinganlar va ushlanganlar tomonidan qarshilik ko'rsatilganda, ularning atrofda qilargani yoki o'ziga ziyon yetkazishi mumkinligiga yetarli asoslar mavjud bo'lganda, shuningdek ichki ishlar idoralari xodimlariga xizmat vazifalarini amalga oshirishda qasddan to'sqinlik qilayotgan shaxslarga nisbatan.

Maxsus vositalarni qo'llashdan oldin ogohlantirish va vaziyatga qarab qonunbuzarlikni to'xtatish uchun yetarli vaqt berilishi kerak.

Kutilmagan hujumni qaytarish, qasddan jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab, garovga olinganlarni ozod qilish, terrorchilik harakatlarining oldini olish va bartaraf etishda maxsus vositalar ogohlantirilmasdan qo'llaniladi.

Maxsus vositalarning turi va uni qo'llash tartibi yuzaga kelgan vaziyatni, qonunbuzarlikning xususiyati va qonunbuzarning shaxsini hisobga olgan holda belgilanadi. Maxsus vositalar qo'llanganda fuqarolarning sog'lig'iga zarar yetkazish ehtimoli kam (minimal) bo'lishi kerak.

Homiladorlik belgilari bo'lgan ayollarga, nogironligi ko'rinib turgan shaxslarga va yosh bolalarga nisbatan maxsus vositalar qo'llash taqiqlanadi (ular tomonidan hayot uchun xavfli hujum qilingan, guruh bo'lib hujum qilingan yoki qurolli qarshilik ko'rsatilgan hollardan tashqari).

Ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan o'qotar qurolni qo'llash va undan foydalanish tartibi hamda qoidalari.

Davlat manfaatlarini himoya qilish bo'yicha xizmat burchlarini bajarishni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, xilma-xil shakldagi mulkni qo'riqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, hayoti va sog'ligini jinoiy tajovuzlaridan himoya qilish maqsadida ichki ishlar idoralarning xodimlari quyidagi hollarda oxirgi chora sifatida o'qotar qurolini qo'llash huquqiga egadirlar:

a) fuqarolarni ularning hayoti va sog'ligiga xavf solayotgan hujumlardan himoyalash, shuningdek garovdagi shaxslarni qutqarish uchun;

b) o'zini himoya qilish maqsadida, shuningdek qurolini egallab olishga urinayotgan shaxslarga nisbatan;

d) o'ta og'ir jinoyat sodir etish ustida qo'lga tushgan va yashirinishga urinayotgan shaxsni, shuningdek qurolli qarshilik ko'rsatayotgan shaxsni ushlab;

ye) fuqarolarning uy-joylariga, qo'riqlanayotgan obyektlarga, davlat idoralari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar binolariga guruh bo'lib yoki qurol bilan qilingan hujumni qaytarishda;

f) jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlangan va ularga nisbatan qamoqqa olish chorasi belgilangan, ozodlikdan mahrum etishga hukm etilgan shaxslarning hibsdan qochishga urinishlarini qaytarish, shuningdek ushbu shaxslarni kuch ishlatib ozod etishga urinishlarni bartaraf etishda.

Ички ишлар идоралари ходимлари ўқотар қуролдан қуйидаги мақсадларда ҳам фойдаланишга ҳақлидирлар:

a) транспорт воситасининг ҳайдовчиси фуқароларнинг ҳаёти ва соғлигига ҳақиқий хавф туғдираётган ва ички ишлар идораси ходимининг транспорт воситасини тўхтатиш тўғрисидаги талабига бўйсунмаганда транспорт воситасини шикастлантириш йўли билан тўхтатиш учун;

b) inson hayoti va sog'ligiga xavf tug'dirayotgan hayvonni zararsizlantirish uchun;

d) qurol qo'llashi haqida ogohlantirish, signal berish yoki yordamga chaqirish uchun.

Qurolni ishlatishdan avval ichki ishlar idoralari xodimi huquqbuzarga «*To'xta! Otaman*» deb xitob qilib, ogohlantirishi va kamida bir marta osmonga otishi shart.

Xodimning yoki fuqarolarning hayotiga bevosita xavf tug'ilgan hollarda, qo'qqisdan yoki qurol bilan hujum qilinganda, harbiy texnika, transport vositasi, uchish apparatlari, dengiz va daryo kemalaridan foydalanib hujum qilinganda, soqchidan qurol bilan yoxud transport vositasidan foydalanib qochganda, qamoqdagi shaxslar transport vositasi harakatlanayotgan chog'ida undan qochishga uringanda, qo'poruvchilik-terrorchilik harakatlari va boshqa og'ir jinoyatlar sodir etgan shaxslarni ushlab, garovdagilarni qutqarish uchun quroldan ogohlantirishsiz qo'llanish mumkin.

O'qotar qurolni ayollarga, nogironligi ko'rinib turgan shaxslar va kichik yoshdagi bolalarga nisbatan qo'llash taqiqlanadi, ular qurol bilan qarshilik ko'rsatgan yoki odamlar hayotiga xavf soluvchi guruh bo'lib hujum qilgan hollar bundan mustasno.

Ichki ishlar idoralari xodimlari oxirgi chora sifatida yuqorida qayd etilgan holatlarda har qanday sharoit va joylarda qurolni qo'llash yoki undan foydalanishi mumkin, lekin bunda boshqa shaxslarga zarar yetmasligiga yoki katta talafotlar kelib chiqmasligiga o'zida to'liq ishonch hosil qilganidan keyin qo'llashi shart. Shuningdek, qurolni imkoniyat darajasida jamoat joylarida yoki tez alanga oluvchi va portlash xavfi bor joylarda hamda beton devorli xonalarda o'q o'z yo'nalishini o'zgartirishi mumkin bo'lgan holatlarda qo'llamaslik tavsiya etiladi.

Ichki ishlar idoralari xodimlari qurolni qo'llaganlaridan keyin bajarishlari lozim bo'lgan xatti-harakatlar quyidagilardan iborat:

1) qurol qo'llanganligi haqida zudlik bilan hududiy IIB navbatchisiga xabar berishi kerak;

2) qurol qo'llangan shaxs jarohatlangan bo'lsa, qo'qqisdan qilinishi mumkin bo'lgan hujumdan ehtiyot bo'lish choralarini ko'rgan holda jarohatlangan shaxsga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatishi lozim;

3) qurol qo'llash shaxsning o'limiga olib kelsa, prokuratura xodimi va ichki ishlar idorasining tergov-tezkor guruhi yetib kelgunga qadar o'lgan shaxsning jasadi qo'riqlanishini va voqea joyidagi vaziyat to'liq saqlanishini ta'minlashi kerak;

4) ichki ishlar idorasiga kelganidan so'ng bildirgi bilan qachon, qayerda, kimga nisbatan qurol qo'llanganligini, qo'llash sabablari, sharoitlari va oqibatlarini, otilgan o'qlar sonini ko'rsatgan holda axborot berishi;

5) bildirgi berilgandan so'ng tabel qurolini va qolgan o'qlarni IIB navbatchilik qismiga topshirishi kerak.

O'qotar qurolni qo'llash oqibatida shaxsning o'lishi yoki yarador bo'lishi holatlari haqida ichki ishlar idoralari zudlik bilan, qolgan holatlarda esa 24 soat mobaynida prokurorga xabar berishi lozim.

O'qotar qurolini vakolat doirasidan chiqqan holda qo'llagan xodim amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Ichki ishlar idoralari tomonidan ma'muriy jazoni qo'llash asoslari va tartibi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilinganda, ya'ni huquqbuzar tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun ma'muriy jazo – O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va boshqa normativ hujjatlarda belgilab qo'yilgan doirada va tartibda qo'llaniladi.

Ma'muriy jazoni qo'llash asoslari yana quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) ma'muriy huquqbuzarlik hodisasi yoki alomatining mavjudligi;

2) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish paytida shaxs javobgarlikka tortish yoshiga yetgan bo'lsa;

3) g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikni sodir etgan shaxs aqli raso bo'lsa;

4) shaxs harakatni zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqib sodir etsa;

5) ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish paytida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 36-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o'tib ketmagan bo'lsa.

Sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi sanksiyalarda – jazo chorasi va uning ruxsat etilgan me'yorlari (hajmi, miqdori)ning eng kami va eng yuqorisi ko'rsatilgan bo'ladi.

Ma'muriy jazoni qo'llashda vakolatli organ (mansabdor shaxs) ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining, ya'ni, qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik va ayb uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanishi shart.

O'zbekiston Respublikasi MJtKda ma'muriy jazoning qo'llanilishiga bag'ishlangan alohida 4-bob ajratilgan bo'lib, uning 30-moddasida ma'muriy jazo qo'llanilishining umumiy qoidalari o'z aksini topgan.

Mazkur ma'muriy-huquqiy normaga muvofiq ma'muriy huquqbuzarlik uchun jazo MJtK va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan doirada va tartibda qo'llaniladi.

Vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan ma'muriy jazoni qo'llanish chog'ida:

- sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati;
- huquqbuzarning shaxsi;
- uning aybdorlik darajasi;
- mulkiy ahvoli;

javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar;

javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar hisobga olinadi.

Ma'muriy jazo qo'llanishining mazkur umumiy qoidalariga barcha vakolatli organlar va mansabdor shaxslar rioya qilishlari shart.

Bundan tashqari, ma'muriy jazoni qo'llashda jazoni individuallashtirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Ma'muriy huquqda sodir etilgan qilmishning xususiyati, huquqbuzarning aybdorlik darajasi, shaxsi hamda qonunda nazarda tutilgan javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan sanksiyalar doirasida unga jazo tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi MJtKning 248-moddasiga asosan, ichki ishlar idoralari 44 ta modda bo'yicha huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqadilar va jazo qo'llaydilar. Ichki ishlar idoralari xodimlari faqat ma'muriy jarima va chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni ma'muriy tartibda chiqarib yuborish jazosi belgilangan huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqadilar. Ichki ishlar idoralari ko'rib chiqadigan huquqbuzarliklardan 33 tasi transport, yo'l xo'jaligi, aloqa sohasidagi; 1 tasi obodonlashtirish sohasidagi; 3 tasi jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi; 7 tasi boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarga mansubdir. Ushbu normadan ichki ishlar idoralarning huquqbuzarliklar uchun jazo qo'llashdagi vakolati doirasi faqat ma'muriy ishlar bo'yicha sudlardan keyingi o'rinda turganligini ko'rish mumkin.

Ma'muriy jazo qo'llashning asosiy maqsadi ham huquqbuzarga jismoniy yoki moddiy ta'sir etish emas, balki huquqbuzarlarni qonunni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamiyatga zid hayot kechiruvchilarni ijobiy tomonga o'zgartirishdan iborat. Ichki ishlar idoralari bundan tashqari, MJtKning 287-moddasida belgilangan vakolatlariga asosan 79 ta modda bo'yicha huquqbuzarliklarni to'xtatish, huquqbuzarlarning shaxsini aniqlash, huquqbuzarlik to'g'risida

bayonnoma tuzish, ishlarning o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqilishini ta'minlash va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida bunday shaxslarga ta'sir chorasi sifatida ma'muriy yo'l bilan ushlab turish qo'llaniladi.

Jazoni individuallashtirishda aybdor shaxsning barcha ijobiy va salbiy xususiyatlari, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlari hisobga olinishi lozim, chunki jazo asosan shaxsiy xususiyatga ega va faqat aybdor shaxsga qo'llaniladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 31- va 32-moddalariga ko'ra, ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga olgan holda ko'rib chiqiladi.

Ma'muriy qonunchilik hujjatlarida bir necha ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi uchun ma'muriy jazo qo'llash qoidalari ham belgilangan.

Bir shaxs ikki yoki undan ortiq ma'muriy huquqbuzarlik xatti-harakat (harakatsizlik)larini sodir etgan bo'lsa, ma'muriy jazo har bir huquqbuzarlik uchun alohida-alohida qo'llaniladi.

Basharti shaxs bir necha ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan bo'lib, shu haqdagi ishlar bir vaqtning o'zida ayni bir organ (mansabdor shaxs) tomonidan ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, bu shaxsga nisbatan uzil-kesil jazo og'irroq ma'muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo'llaniladi. Bu holda asosiy jazoga sodir etilgan huquqbuzarliklardan istalgan bittasi uchun ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi moddalarda nazarda tutilgan qo'shimcha jazo choralaridan biri qo'shilishi mumkin.

Basharti shaxs MJtKning Maxsus qismidagi bir necha modda bilan ma'muriy javobgarlik belgilangan va ular to'g'risidagi ishlarni har xil organ (mansabdor shaxs) ko'radigan harakat (harakatsizlik) sodir etgan bo'lsa, unga nisbatan jazo og'irroq ma'muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida qo'llaniladi. Bu holda asosiy jazoga sodir etilgan huquqbuzarliklardan istalgan bittasi uchun ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi moddalarda nazarda tutilgan qo'shimcha jazo choralaridan biri qo'shilishi mumkin¹.

Ma'muriy jazo – ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa, huquqbuzarlik aniqlangan kundan boshlab *ikki oydan* kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1995. – №3. 6-м.

alamatlari mavjud bo'lsa, ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab *bir oydan* kechiktirmay qo'llanilishi mumkin¹.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 37-moddasiga muvofiq, ma'muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida yangi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo'lsa, mazkur shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi. Mazkur bir yillik muddat o'tgach ushbu shaxs tomonidan xuddi shunday ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda uning huquqbuzarlikni takroran sodir etgan deb kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas.

Asosiy ma'muriy jazo choralari bu – boshqa ma'muriy jazo choralarning turlariga bir vaqtda qo'shimcha bo'lib, tayinlanishi mumkin bo'lmagan jazo choralaridir. Masalan, jarima, muayyan shaxsni maxsus huquqdan mahrum qilish, ma'muriy qamoq kabi choralar faqat asosiy ma'muriy jazo choralari sifatida qo'llanilishi mumkin.

Qo'shimcha ma'muriy jazo choralari bu – ma'muriy jazo chorasiga qo'shimcha ravishda tayinlanishi mumkin bo'lgan ma'muriy jazo choralaridir. Masalan, ashyolarni haqini to'lash sharti bilan olib qo'yish yoki musodara qilish qo'shimcha jazo choralaridir. Biroq, ular ham asosiy, ham qo'shimcha ma'muriy jazo tariqasida qo'llanilishi mumkin. Qo'shimcha ma'muriy jazo choralarning yana bir o'ziga xos xususiyati bu ularning sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun alohida, mustaqil ravishda qo'llanilishining mumkin emasligi, ya'ni ular faqat asosiy ma'muriy jazo choralariga qo'shimcha jazo chorasi sifatida tayinlanishi mumkin.

Demak, bir ma'muriy huquqbuzarlik uchun yo asosiy, yoki ham asosiy, ham qo'shimcha jazo chorasi qo'llanilishi mumkin. Lekin, bir vaqtning o'zida ikkita asosiy yoki ikkita qo'shimcha jazo choralarning qo'llanilishi mumkin emas.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2004. – №5. – 90-м.

XULOSA

Mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalikni saqlash, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligi, huquq hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash, xilma-xil shakllardagi mulkchilikni qo'riqlash, huquqbuzarliklar, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish va ularga qarshi kurashish ichki ishlar idoralarining muhim vazifasidir.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «Biz murakkab zamonda yashamokdamiz. Bugungi kunda mamlakatimiz hayotiga uyushgan va transmilliy jinoyatchilik, narkobiznes bilan bog'liq xavf-xatarlar tahdid solmokda. Bunday balo-qazolarga qarshi samarali kurashish, ularga munosib zarba berish ichki ishlar idoralariga tegishli barcha xizmatlardan aniq va hamjihatlikda harakat qilishni, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning har bir xodimidan o'z xizmat burchini mas'uliyatni chuqur his etgan holda, halol ado etishni talab qiladi»¹.

Ma'muriy majburlashning turli choralarini qo'llash jarayonida huquqbuzarliklar, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligiga tahdid soluvchi xatti-harakatlar, holatlarning oldi olinadi, bartaraf etiladi, aybdor shaxslar javobgarlikka tortiladi, jamoat tartibi va xavfsizligi ta'minlanadi, fuqarolarning huquq va manfaatlariga, boshqaruvning o'rnatilgan tartiblariga rioya qilinadi.

Ma'muriy majburlov davlat majburlovining bir turi bo'lib, davlat boshqaruvi jarayonida ma'muriy huquqbuzarliklarning oldini olish, cheklash va aybdorlarni ma'muriy javobgarlikka tortish maqsadida kishilarning ongi va xulq-atvoriga ruhiy, moddiy yoki jismoniy ta'sir ko'rsatish chorasidir.

Amir Temur o'zining “Tuzuklarida” markazlashgan adolatni davlatini mustahkamlashda rag'batlantirish va jazolash bilan tartib-intizomni ta'minlaganini ta'kidlaydi.

Demak, davlat boshqaruvi faoliyatining bu ikki usuli uzoq o'tmishdan boshlab maqsadga muvofiq keng qo'llanib kelingan va o'z samarasini bergan. Hozirgi kunda ham mazkur choralar davlat boshqaruvi faoliyatida o'z ahamiyatini kamaytirmay, balki zaruriy usul va vosita bo'lib hisoblanadi. Shu bois, bo'lajak ichki ishlar idoralari xodimlari davlat boshqaruvi faoliyatining ishontirish va majburlash usullari haqida batafsil tushuncha va bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг ички ишлар идоралари ходимларига йўллаган байрам табриги // Постда. – 2007. – 25 окт.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2012.
- Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. – Т., 2013.
- Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексида шарҳлар. – Т., 2000.
- Ўзбекистон Республикасининг Жиноят процессуал кодекси. – Т., 2010.
- Ислом Каримов* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т., 1996.
- Каримов И.А.* “Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. – Т., 2010.
- Каримов И.А.* Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. – Т., 2002.
- Ўзбекистон Республикасининг “Жазони ижро этиш жойларидан бўшатишнинг шахслар устидан ички ишлар идораларининг маъмурий назорати тўғрисида”ги 1992 йил 9 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. 1993. – № 1. – 33-м.
- Ўзбекистон Республикасининг “Сурункали алкоголизм, гиёҳвандликка, захарвандликка мубтало бўлган беморларни мажбурий даволаш тўғрисида”ги 1992 йил 9 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. 1993. – № 1. – 35-м.
- Ўзбекистон Республикасининг “Давлат санитария назорати тўғрисида”ги 1992 йил 3 июль қонуни // Ўзбекистон Республикасининг Олий Кенгашининг ахборотномаси. 1992. – № 9. – 355-м.
- Ўзбекистон Республикасининг “Одамнинг иммунитет танқислиги вируси билан касалланишнинг (ОИВ касаллигининг) олдини олиш тўғрисида”ги 1999 йил 19 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. 1999. – № 9. – 213-м.
- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ички ишлар вазирлиги тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 1991 йил 25 октябрь қарори // Ҳукумат қарорлари тўплами. 1991.– №11. – 36-м.
- Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Транспорт воситаларини мажбурий техник кўриқдан ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” 2003 йил 31 январь қарори //

Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – 2003. – № 1-2. 17-м.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлигининг “Йўл ҳаракати қоидаларининг бузилишига доир маъмурий ишларни кўриб чиқиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги 2011 йил 31 май 68-сонли буйруғи // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2011. – №27. – 286-м.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг Норматив ҳуқуқий ҳужжатларга амал қилинишини мониторинг қилиш маркази томонидан ИИВ тизимида Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс нормаларига риоя этилиши юзасидан ўтказилган мониторинг натижалари бўйича аналитик материаллари. – Т., 2009.

Словарь административного права. – М., 1999. – С.25.

Алимов Ҳ.Р., Махмудов А.А., Исмоилов Н.Т. Маъмурий ҳуқуқ: Дарслик. – Т., 2003. – Б. 77–78.

Таджиханов У., Саидов А. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Т., 2001. – Б.185.

Хожиев Э., Хожиев Т. Маъмурий ҳуқуқ: Дарслик. – Т.2006. – Б.496-535.

Ma'muriy huquq. Darslik: *Prof. Odilqoriev H.T., Qosimov B.E.* Umumiy tahriri ostida. – Т., 2010. – Б.175-197.

Бахрах Д.Н. Административное право России: Учебник для вузов. – М., 2000. – С.444–445.

Бахрамов Х.Х., Селиманова С.М. Административная ответственность: обстоятельства, влияющие на назначение наказания // Ҳуқуқ-Право-Law. – Т., 2005. – № 3. – С.78–79.

**ICHKI ISHLAR IDORALARI TOMONIDAN MA'MURIY
MAJBURLASH CHORALARINING QO'LLANILISHINI
TARTIBGA SOLUVCHI AMALDAGI MA'MURIY JAVOBGARLIK
TO'G'RISIDAGI CODEKSNING AYRIM MODDALARIDAN
K O' C H I R M A**

1-модда. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги қонун ҳужжатлари

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ушбу Кодекс, Ўзбекистон Республикаси қонунлари, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари, Қорақалпоғистон Республикаси қонунлари, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгесининг ва Вазирлар Кенгашининг қарорлари, халқ депутатлари вилоятлар ва Тошкент шаҳар Кенгашларининг, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимларининг қарорларидан иборатдир.

Ушбу Кодекс қоидалари мазкур Кодексга киритилмаган қонун ҳужжатларида содир этганлик учун жавобгарлик назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларга ҳам тааллуқлидир.

2-модда. Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг вазифалари

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги қонун ҳужжатлари инсон ва жамият фаровонлиги йўлида фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини, мулкни, давлат ва жамоат тартибини, табиий муҳитни муҳофаза қилишни, ижтимоий адолат ва қонунийликни таъминлашни, маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларнинг ўз вақтида ва объектив кўриб чиқилишини, шунингдек бундай ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишни, фуқароларни Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларига риоя этиш руҳида тарбиялашни ўз олдига вазифа қилиб қўяди.

Бу вазифаларни амалга ошириш учун ушбу Кодекс қандай ҳаракат ёки ҳаракатсизлик маъмурий ҳуқуқбузарлик ҳисобланишини, маъмурий ҳуқуқбузарликни содир этган шахсга нисбатан қайси орган (мансабдор шахс) томонидан қай тартибда қанақа маъмурий жазо қўлланилиши ва ижро этилишини белгилайди.

7-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш

Давлат органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, жамоат бирлашмалари маъмурий ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, уларнинг содир этилишига олиб келувчи сабаблар ва шароитларни аниқлаш ҳамда бартараф этишга, фуқароларни онгли, интизомли бўлиш, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларига риоя қилиш руҳида тарбиялашга йўналтирилган тадбирлар ишлаб чиқадилар ва уларни амалга оширадилар.

Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари Ўзбекистон Республикаси Конституциясига, Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудида эса Қорақалпоғистон Республикаси Конституциясига ҳам мувофиқ қонунийлик, ҳуқуқ-тартибот ва фуқаролар хавфсизлигини таъмин эта бориб, ўз ҳудудларида барча давлат органлари ва жамоат бирлашмаларининг маъмурий ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасидаги ишларини мувофиқлаштириб турадилар, ички ишлар органлари, вояга етмаганлар иши билан шуғулланувчи комиссиялар ҳамда уларга ҳисобдор маъмурий ҳуқуқбузарлик билан кураш олиб борувчи бошқа органлар фаолиятига раҳбарлик қиладилар.

8-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарлик учун таъсир кўрсатиш чораларини қўлланиш вақтида қонунийликни таъминлаш

Маъмурий ҳуқуқбузарлик учун ҳеч ким қонун ҳужжатларида белгиланган асослар ва тартибдан бошқача тарзда таъсир кўрсатиш чорасига тортилиши мумкин эмас.

Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни юритиш қонунийликка риоя қилиш асосида олиб борилади.

Тегишли ваколат берилган органлар ва мансабдор шахслар маъмурий таъсир кўрсатиш чораларини ўз ваколатлари доирасида қўллайдилар.

Маъмурий ҳуқуқбузарлик учун таъсир кўрсатиш чораларини қўлланиш чоғида қонун ҳужжатлари талабларига риоя этилиши ваколатли юқори турувчи органлар ва мансабдор шахслар томонидан мунтазам равишда назорат қилиб турилиши билан, прокурор назорати билан, шикоят бериш ҳуқуқи билан таъминланади.

10-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тушунчаси

Маъмурий ҳуқуқбузарлик деганда қонун ҳужжатларига биноан маъмурий жавобгарликка тортиш назарда тутилган, шахсга, фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларига, мулкчиликка, давлат ва

жамоат тартибига, табиий муҳитга тажовуз қилувчи ғайриҳуқуқий, айбли (қасддан ёки эҳтиётсизлик орқасида) содир этилган ҳаракат ёки ҳаракатсизлик тушунилади.

Ушбу Кодексда назарда тутилган ҳуқуқбузарлик учун маъмурий жавобгарлик, башарти бу ҳуқуқбузарлик ўз хусусиятига кўра жиноий жавобгарликка тортишга сабаб бўлмаган тақдирда, амалга оширилади.

13-модда. Маъмурий жавобгарликка тортилиш ёши

Маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган пайтда ўн олти ёшга тўлган шахслар маъмурий жавобгарликка тортиладилар.

16-модда. Ҳарбий хизматчилар ва интизом уставлари татбиқ этиладиган бошқа шахсларнинг маъмурий жавобгарлиги

Ҳарбий хизматчилар ва йиғинга чақирилган ҳарбий хизматга мажбурлар, шунингдек ички ишлар органларининг оддий аскарлар ва бошлиқлар таркибига мансуб шахслар маъмурий ҳуқуқбузарлик учун интизом уставларига мувофиқ жавобгар бўладилар. Мазкур шахслар йўл ҳаракати қоидаларини, ов қилиш, балиқ тутиш ва балиқ захираларини сақлаш қоидаларини, божхона қоидаларини бузганликлари учун умумий асосларда маъмурий жавобгар бўладилар. Юқорида кўрсатилган шахсларга нисбатан маъмурий қамокқа олиш чоралари қўлланилиши мумкин эмас. Муддатли ҳарбий хизмат ҳарбий хизматчиларига жарима солиниши мумкин эмас.

Ушбу модданинг биринчи қисмида кўрсатилган шахслар жумласига кирмайдиган, интизом уставлари ёки интизом тўғрисидаги махсус қоидалар татбиқ этиладиган бошқа шахслар, ана шу устав ёки қоидаларда тўғридан-тўғри назарда тутилган ҳолларда, маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этганликлари учун интизомий жавобгар бўладилар, бошқа ҳолларда эса умумий асосларда маъмурий жавобгар бўладилар.

17-модда. Ажнабий фуқаролар ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг маъмурий жавобгарлиги

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида бўлган ажнабий фуқаролар ва фуқаролиги бўлмаган шахслар умумий асосларда маъмурий жавобгарликка тортилишлари лозим.

Иммунитетга эга бўлган шахсларга нисбатан ушбу Кодекснинг Ўзбекистон Республикаси қатнашчи бўлган халқаро шартномалар ва битимларга зид бўлмаган қисми қўлланилади.

22-модда. Маъмурий жазонинг мақсади

Маъмурий жазо жавобгарликка тортиш чораси бўлиб, у маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган шахсни қонунларга риоя этиш ва уларни ҳурмат қилиш руҳида тарбиялаш, шунингдек ана шу ҳуқуқбузарнинг ўзи томонидан ҳам, бошқа шахслар томонидан ҳам янги ҳуқуқбузарлик содир этилишининг олдини олиш мақсадида қўлланилади.

23-модда. Маъмурий жазонинг турлари

Маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этганлик учун куйидаги маъмурий жазо чоралари қўлланилиши мумкин:

1) жарима;

2) маъмурий ҳуқуқбузарликни содир этиш қуроли ҳисобланган ёки бевосита шундай нарса бўлган ашёни ҳақини тўлаш шарти билан олиб қўйиш;

3) маъмурий ҳуқуқбузарликни содир этиш қуроли ҳисобланган ёки бевосита шундай нарса бўлган ашёни мусодара қилиш;

4) муайян шахсни унга берилган махсус ҳуқуқдан (транспорт воситасини бошқариш ҳуқуқидан, ов қилиш ҳуқуқидан) маҳрум этиш;

5) маъмурий қамокқа олиш.

Ушбу модда биринчи қисмининг 2–5-бандларида санаб ўтилган маъмурий жазо чоралари фақат Ўзбекистон Республикаси қонунлари билан белгиланиши мумкин.

Қонун ҳужжатларида маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этганлик учун ажнабий фуқароларни ва фуқаролиги бўлмаган шахсларни Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан маъмурий тарзда чиқариб юбориш назарда тутилиши мумкин.

24-модда. Асосий ва қўшимча маъмурий жазо чоралари

Ашёларни ҳақини тўлаш шарти билан олиб қўйиш ёки мусодара қилиш ҳам асосий, ҳам қўшимча маъмурий жазо тариқасида; ушбу Кодекснинг 23-моддасида назарда тутилган бошқа маъмурий жазо чоралари эса фақат асосий жазо тариқасида қўлланилиши мумкин.

Битта маъмурий ҳуқуқбузарлик учун ё асосий ёки ҳам асосий, ҳам қўшимча жазо чораси қўлланилиши мумкин.

30-модда. Маъмурий жазо қўлланилишининг умумий қоидалари

Маъмурий ҳуқуқбузарлик учун жазо ушбу Кодекс ва бошқа норматив ҳужжатларда белгилаб қўйилган доирада ва тартибда қўлланилади.

Жазони қўлланиш чоғида содир этилган ҳуқуқбузарлик хусусияти, ҳуқуқбузарнинг шахси, унинг айбдорлик даражаси, мулкӣ аҳволи, жавобгарликни енгиллаштирувчи ва оғирлаштирувчи ҳолатлар ҳисобга олинади.

35-модда. Маъмурий қамоқ ва махсус ҳуқуқдан маҳрум этиш муддатларини ҳисоблаш

Маъмурий қамоқ муддати суткалар билан, махсус ҳуқуқдан маҳрум этиш муддати эса – кунлар, ойлар, йиллар билан ҳисобланади.

36-модда. Маъмурий жазо қўлланиш муддатлари

Маъмурий жазо ҳуқуқбузарлик содир этилган кундан бошлаб, давом этаётган ҳуқуқбузарликлар учун эса, ҳуқуқбузарлик аниқланган кундан бошлаб икки ойдан кечиктирмай қўлланилиши мумкин.

Жиноят ишини қўзғатиш рад этилган ёки жиноят иши тугатилган бўлса-ю, лекин ҳуқуқбузарнинг ҳаракатларида маъмурий ҳуқуқбузарлик аломатлари мавжуд бўлса, маъмурий жазо чораси жиноят иши қўзғатишни рад этиш ёки жиноят ишини тугатиш тўғрисида қарор қабул қилинган кундан бошлаб бир ойдан кечиктирмай қўлланилиши мумкин.

Ушбу моддада назарда тутилган муддатлар ашёларни божхона муносабатларини тартибга соладиган қонун ҳужжатлари асосида мусодара қилиш ҳолларига нисбатан татбиқ этилмайди.

37-модда. Тугаганидан сўнг шахс маъмурий жазога тортилмаган деб ҳисобланадиган муддат

Башарти маъмурий жазога тортилган шахс шу жазони ўташ муддати тугаган кундан бошлаб бир йил мобайнида янги маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этмаган бўлса, мазкур шахс маъмурий жазога тортилмаган деб ҳисобланади.

269-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни юритиш вазифалари

Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни юритиш вазифалари: ҳар бир ишнинг ҳолатини ўз вақтида, ҳар томонлама, тўла ва объектив равишда аниқлаб чиқишдан, бу ишни қонун ҳужжатларига мувофиқ ҳолда ҳал этишдан, чиқарилган қарорнинг ижросини таъминлашдан, шунингдек маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этиш сабаблари ва бунга олиб келган шарт-шароитларни аниқлашдан, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишдан, фуқароларни Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва қонунларига риоя этиш руҳида тарбиялашдан, қонунийликни мустаҳкамлашдан иборатдир.

270-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни юритиш тартиби

Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни юритиш тартиби ушбу Кодекс ва бошқа қонун ҳужжатлари билан белгиланади.

271-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни юритишни истисно этувчи ҳолатлар

Қуйидаги ҳолатлар мавжуд бўлган тақдирда маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни юритишни бошлаш мумкин эмас, бошланган иш эса тугатилиши лозим:

- 1) маъмурий ҳуқуқбузарлик ҳодисаси ёки аломати йўқ бўлса;
- 2) маъмурий ҳуқуқбузарликни содир этиш пайтида шахс ўн олти ёшга тўлмаган бўлса;
- 3) ғайриҳуқуқий ҳаракат ёки ҳаракатсизликни содир этган шахс ақли норасо бўлса;
- 4) шахс ҳаракатни зарурий мудофаа ҳолатида ёки охириги зарурат ҳолатида қилган бўлса;
- 5) амнистия акти чиқиши, агар у маъмурий жазо чорасини қўлланишни бекор қилса;
- 6) маъмурий жавобгарликни белгиловчи ҳужжат бекор қилинган бўлса;
- 7) маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишни кўриб чиқиш пайтига келиб ушбу Кодекснинг 36-моддасида назарда тутилган муддатлар ўтиб кетган бўлса;
- 8) маъмурий жавобгарликка тортилаётган шахс хусусида шу факт юзасидан маъмурий жазо қўлланиш тўғрисида ваколатли орган (мансабдор шахс) қарор чиқарган бўлса ёки маъмурий ҳуқуқбузарлик

тўғрисидаги ишларни тугатиш тўғрисида чиқарилган қарор бекор қилинмаган бўлса, шунингдек мазкур факт юзасидан жиноят тўғрисидаги иш қўзғатилган бўлса;

9) шахс иши юритила бошланган пайтда вафот этган бўлса.

276-модда. Далиллар

Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишга оид далиллар ҳар қандай фактик маълумотлардан иборат бўлиб, органлар (мансабдор шахслар) шу маълумотларга асосланиб маъмурий ҳуқуқбузарлик ҳолати юз берган ёки бермаганлигини, муайян шахснинг уни содир этишда айбдорлигини ва ишни тўғри кўриб чиқиш учун аҳамиятли бўлган бошқа ҳолатларни қонунда белгиланган тартибда аниқлайди.

Бу маълумотлар қуйидаги воситалар: маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги баённома, маъмурий жавобгарликка тортилаётган шахснинг тушунтиришлари, жабрланувчи, гувоҳларнинг кўрсатувлари, эксперт хулосаси, ашёвий далиллар, ашё ва ҳужжатларни олиб қўйиш тўғрисида тузилган баённома, шунингдек бошқа материаллар билан белгиланади.

279-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги баённомани тузиш

Маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этилганлиги тўғрисидаги баённома ваколатли мансабдор шахс томонидан тузилади.

Ушбу Кодекснинг 283-моддасида назарда тутилган ҳолларда баённома тузилмайди.

280-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисида баённома тузишга ваколати бўлган шахслар

Бузилиши маъмурий жавобгарликни келтириб чиқарадиган қоидаларга риоя этилишини текшириш ва назорат қилиш қонун ҳужжати билан зиммасига юклатилган тегишли органнинг ваколатли мансабдор шахси маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги баённомани тузади.

281-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги баённоманинг мазмуни

Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги баённомада: шу баённома тузилган сана ва жой, баённомани тузган шахснинг лавозими, фамилияси, исми, отасининг исми; ҳуқуқбузарнинг шахсига оид

маълумотлар; маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этилган жой, вақт ва бу ҳуқуқбузарликнинг моҳияти, ана шундай ҳуқуқбузарлик учун жавобгарликни назарда тутувчи норматив ҳужжат; агар гувоҳлар ва жабрланувчилар бўлса, уларнинг фамилиялари ва яшаш манзиллари; ҳуқуқбузарнинг тушунтириши; ишни ҳал қилиш учун зарур бўлган бошқа маълумотлар кўрсатилади. Башарти ҳуқуқбузарлик туфайли моддий зарар етказилган бўлса, бу ҳам баённомада кўрсатилади.

Баённома уни тузган шахс ва маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган шахс томонидан имзоланади; гувоҳлар ва жабрланувчилар бўлган тақдирда эса — баённома мазкур шахслар томонидан ҳам имзоланади.

Ҳуқуқбузарлик содир этган шахс баённомани имзолашдан бош тортган тақдирда, баённомага бу ҳақда ёзиб қўйилади. Ҳуқуқбузарлик содир этган шахс баённоманинг мазмуни юзасидан баённомага илова қилинадиган тушунтириш ва мулоҳазаларини беришга, шунингдек мазкур баённомага имзо чекишдан бош тортиш сабабларини баён этишга ҳақлидир.

Баённомани тузиш вақтида ҳуқуқбузарга ушбу Кодекснинг 294-моддасида назарда тутилган унинг ҳуқуқ ва бурчлари тушунтирилади ва бу хусусда баённомага ёзиб қўйилади.

282-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги баённомани жўнатиш

Баённома бошқа ҳужжатлар ва иш бўйича ашёвий далиллар билан бирга ҳуқуқбузарлик содир этилган ёки аниқланган пайтдан бошлаб бир суткадан кечиктирмай маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш ваколатига эга бўлган орган (мансабдор шахс)га юборилади.

283-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисида баённома тузилмайдиган ҳоллар

Агар фуқаро ўзи содир этган ҳуқуқбузарлик фактига эътироз билдирмаса ҳамда унга жойнинг ўзида солинадиган жариманинг миқдори энг кам иш ҳақининг иккидан бир қисмидан ошмаса, йўл ҳаракати қоидаларининг бузилиши тўғрисидаги ишлар юзасидан эса фақат ушбу Кодекс 138-моддасининг биринчи, иккинчи ва учинчи қисмларида назарда тутилган ҳолларда, шунингдек қонун ҳужжатларида назарда тутилган бошқа ҳолларда ҳам маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисида баённома тузилмайди.

Жарима тўлаганлиги тўғрисида айбдорга белгиланган шаклдаги квиванция берилади.

Башарти фуқаро ўзига солинадиган жаримага эътироз билдирса, у ҳолда ушбу Кодекснинг 279-моддасига мувофиқ баённома тузилади.

284-модда. Ҳуқуқбузарни ушлаб келтириш

Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисида баённома тузиш мақсадида, башарти баённома тузиш зарур бўлиб, уни ҳуқуқбузарлик килинган жойда тузиш мумкин бўлмаса, ҳуқуқбузар милиция ходими ёки маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисида баённома тузишга ваколатли бошқа шахс томонидан милицияга ёхуд фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи биносига ушлаб келтирилиши мумкин.

Транспорт воситаларидан фойдаланиш, ҳаракат тартиби ва хавфсизлигини сақлаш, транспортда юкларни буг сақлашни таъминлаш борасидаги қоидалар, транспортда ёнғиндан сақлаш қоидалари, санитария-гигиена ва эпидемияга қарши кураш-санитария қоидалари бузилган тақдирда ҳуқуқбузар, агар унда шахсини тасдиқловчи ҳужжатлар ва у ҳақда зарур маълумотлар бериши мумкин бўлган гувоҳлар бўлмаса, ваколатли шахс томонидан милицияга ушлаб келтирилиши мумкин.

Ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисидаги қонун ҳужжатлари бузилганда баённома тузиш мақсадида, башарти ҳуқуқбузарнинг шахсини ҳуқуқбузарлик содир этилган жойнинг ўзида аниқлаш мумкин бўлмаса, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини асраш ва ундан фойдаланиш устидан назорат олиб боровчи органларнинг ходимлари, муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларнинг мансабдор шахслари, шунингдек милиция ходимлари шундай ҳуқуқбузарлик содир этган шахсларни милицияга ёки фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи биносига ушлаб келтиришлари мумкин. Ҳуқуқбузар табиатни муҳофаза қилиш жамоатчи инспекторлари, овчилик жамоатчи инспекторлари, балиқларни муҳофаза қилиш жамоатчи инспекторлари ва ўрмонларнинг жамоатчи инспекторлари томонидан ҳам ушлаб келтирилиши мумкин.

Юридик шахсларнинг қўриқланадиган объектларига, бошқа хил мол-мулкига тажовуз қилиш билан боғлиқ ҳуқуқбузарлик содир этилган тақдирда ҳуқуқбузар ҳарбийлаштирилган соқчилик ходимлари томонидан ҳуқуқбузарлик ҳаракатига барҳам бериш, ҳуқуқбузарнинг шахсини аниқлаш ва ҳуқуқбузарлик тўғрисида

баённома тузиш учун ҳарбийлаштирилган соқчилик хизмати биносига ёки милицияга ушлаб келтирилиши мумкин.

Ҳуқуқбузарни олиб келиш иложи борича қисқа муддатда амалга оширилиши лозим.

Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи биносига олиб келинган шахс бу ерда бир соатдан ортиқ ушлаб турилиши мумкин эмас.

285-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишларни юритишни таъминлаш чоралари

Бошқа таъсир кўрсатиш чоралари қўлланиб бўлинганидан кейин маъмурий ҳуқуқбузарликни тўхтатиш, ҳуқуқбузарнинг шахсини аниқлаш, башарти баённома тузиш зарур бўлиб, уни ҳуқуқбузарлик содир этилган жойнинг ўзида тузиш имкони бўлмаган тақдирда маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисида баённома тузиш, ишларнинг ўз вақтида ва тўғри кўриб чиқилишини таъминлаш ва маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишлар юзасидан чиқарилган қарорларни ижро этиш мақсадида мазкур шахсни маъмурий йўл билан ушлаб туришга, шахсан кўриқдан ўтказишга, унинг ашёлари, транспорт воситаларини кўздан кечиришга ва ашё ҳамда ҳужжатларни олиб қўйишга йўл қўйилади.

Ушбу моддада назарда тутилган мақсадларда шахсни маъмурий йўл билан ушлаб туриш, шахсан кўриқдан ўтказиш, унинг ашёлари, транспорт воситаларини кўздан кечириш ва ашё ҳамда ҳужжатларини олиб қўйиш тартиби ушбу Кодекс ва Ўзбекистон Республикасининг бошқа қонун ҳужжатлари билан белгиланади.

286-модда. Маъмурий йўл билан ушлаб туриш

Маъмурий йўл билан ушлаб туриш тўғрисида баённома тузилиб, унда: баённома тузилган сана ва жой, баённома тузган шахснинг лавозими, фамилияси, исми, отасининг исми; ушлаб турилган шахс ҳақидаги маълумотлар; уни ушлаб туриш вақти, жойи ва унинг асослари кўрсатилади.

Баённома уни тузган мансабдор шахс ва ушлаб турилган шахс томонидан имзоланади. Ушлаб турилган шахс баённомани имзолашдан бош тортган тақдирда, баённомага шу ҳақда ёзиб қўйилади.

Ушлаб турилган шахснинг илтимосига кўра, у ушлаб турилган жой ҳақида унинг қариндош-уруғлари, адвокат, иш ёки ўқиш

жойидаги маъмурият хабардор қилиб қўйилади. Вояга етмаган шахс ушлаб турилгани ҳақида унинг ота-онаси ёки улар ўрнини босувчи шахслар албатта хабардор қилинади.

287-модда. Маъмурий йўл билан ушлаб туришга ваколатли органлар (мансабдор шахслар)

Маъмурий йўл билан ушлаб туриш бу ишга Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари билан ваколат бериб қўйилган органлар (мансабдор шахслар) томонидангина амалга оширилиши мумкин, чунончи:

1) ушбу Кодекснинг 56, 57, 58, 61, 90, 91, 92, 94, 113, 114, 115, 116, 117-моддаларида, 118-моддасининг учинчи қисмида, 121, 122, 123, 125, 125¹, 126, 127, 128, 128¹, 128², 128³, 128⁴, 128⁵, 128⁶, 129, 130, 131, 133, 134, 135, 135¹, 136, 137, 138, 141, 142-моддаларида, 144-моддасининг учинчи қисмида, 146-моддасида, 147-моддасининг биринчи қисмида, 152-моддасининг иккинчи ва учинчи қисмларида, 154, 156-моддаларида, 164-моддасининг учинчи қисмида, 170-моддасида, 176-моддасининг иккинчи ва учинчи қисмларида, 176³-моддасида, 176⁴-моддасининг иккинчи қисмида, 183, 184, 184¹, 184², 184³, 185, 186, 187, 188, 189, 189¹, 190, 191, 192, 194, 195, 198, 199, 201, 203, 204, 205, 209, 210, 218, 220, 224-моддаларида, 225-моддасининг биринчи қисмида, 228, 240-моддаларида назарда тутилган ҳуқуқбузарликлар содир этилган тақдирда – ички ишлар органлари томонидан;

2) ушбу Кодекснинг 184², 184³, 196¹, 224, 224¹, 224²-моддаларида назарда тутилган ҳуқуқбузарликлар содир этилган тақдирда – чегара қўшинлари томонидан;

3) ушбу Кодекснинг 61, 198-моддаларида назарда тутилган ҳуқуқбузарликлар содир этилган тақдирда – шу қўриқланадиган объект жойлашган ердаги ҳарбий соқчиликнинг катта мансабдор шахси томонидан;

4) Қуролли Кучлар ва чегара қўшинларининг транспорт воситаларини бошқарувчи ҳайдовчилари ёки бошқа шахслари ушбу Кодекснинг 125, 125¹, 126, 127, 128, 128¹, 128², 128³, 128⁴, 128⁵, 128⁶, 129, 130, 131, 133, 134, 135, 135¹, 136, 137, 138, 141-моддаларида назарда тутилган ҳуқуқбузарликларни содир этган тақдирда – ҳарбий автомобиль инспекциясининг мансабдор шахслари томонидан;

5) ушбу Кодекснинг 60-моддасида, 69-моддасида (қишлоқ ҳўжалигига мўлжалланган ерлар бундан мустасно), 77, 79, 81, 82, 83,

84, 90, 91, 92, 93, 94, 162, 198-моддаларида назарда тутилган ҳуқуқбузарликлар содир этилган тақдирда – Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси органларининг мансабдор шахслари томонидан;

6) ушбу Кодекснинг 184², 184³, 198, 227, 227¹–227²⁷-моддаларида назарда тутилган ҳуқуқбузарлик содир этилган тақдирда – божхона органлари хизматчилари томонидан;

7) ушбу Кодекснинг 194, 204, 205-моддаларида назарда тутилган ҳуқуқбузарликлар содир этилган тақдирда – ҳарбий патруль томонидан;

8) ушбу Кодекснинг 152-моддасининг иккинчи ва учинчи қисмларида (радиоэлектрон воситаларни ёки юқори частотали қурилмаларни сотиш ёхуд ўзгага доимий ёки вақтинчалик фойдаланиш учун бериш қисми), 164-моддасининг учинчи қисмида, 166, 170-моддаларида, 176-моддасининг иккинчи ва учинчи қисмларида, 176³-моддасида, 176⁴-моддасининг иккинчи қисмида, 186¹, 198-моддаларида назарда тутилган ҳуқуқбузарликлар содир этилган тақдирда давлат солиқ органларининг, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Солиқ, валютага оид жиноятларга ва жинойий даромадларни легаллаштиришга қарши курашиш департаменти ва унинг жойлардаги бўлимларининг мансабдор шахслари томонидан».

288-модда. Маъмурий йўл билан ушлаб туриш муддатлари

Маъмурий йўл билан ушлаб туриш уч соатдан ортиқ давом этиши мумкин эмас. Айрим ҳолларда алоҳида зарурат муносабати билан Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида маъмурий йўл билан ушлаб туришнинг бошқача муддатлари белгиланиши мумкин.

Чегара тартибини ёки Ўзбекистон Республикаси давлат чегараси орқали ўтиш пунктларидаги тартибни бузган шахслар баённома тузиш учун уч соатгача муддатга ушлаб турилиши мумкин, ҳуқуқбузарнинг шахсини ва ҳуқуқбузарлик ҳолатларини аниқлаш учун зарур бўлган ҳолларда эса — ушлаш пайтидан бошлаб йигирма тўрт соат ичида прокурорга ёзма тарзда маълум қилиб, уч суткагача ёки ҳуқуқбузарда ўзининг шахсини тасдиқловчи ҳужжат бўлмаса, прокурорнинг санкцияси билан ўн суткагача муддатга ушлаб турилиши мумкин.

Ушбу Кодекснинг 56, 57, 58, 61, 90-моддаларида, 164-моддасининг учинчи қисмида, 170, 183, 184, 184², 184³, 191, 194, 195, 201,

204, 205, 206, 210-моддаларида, 225-моддасининг биринчи қисмида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган ёхуд ўзининг шахси тўғрисидаги маълумотларни яширган шахслар ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги иши маъмурий ишлар бўйича судья ёки ички ишлар органи бошлиғи (бошлиқ ўринбосари) томонидан кўриб чиқилгунга қадар, лекин 24 соатдан кўп бўлмаган муддатга ушлаб турилиши мумкин.

Маъмурий йўл билан ушлаб туриш муддати ҳуқуқбузарни баённома тузиш учун олиб келиш пайтидан бошланади, маст ҳолдаги шахслар учун эса — улар хушёр тортган вақтдан бошланади.

289-модда. Шахсни кўриқдан ўтказиш ва ашёларни кўздан кечириш

Шахсни кўриқдан ўтказиш ички ишлар органларининг, ҳарбий соқчилик, ҳаво транспортининг, божхона органлари ва чегара қўшинларининг ваколатли шахслари, Ўзбекистон Республикаси қонунларида бевосита назарда тутилган ҳолларда эса, шунга ваколати бўлган бошқа органлар томонидан амалга оширилиши мумкин.

Шахсни кўриқдан ўтказиш кўриқдан ўтказилаётган шахс билан бир жинсда бўлган шахслар томонидан ва шу жинсдаги иккита ҳолис гувоҳ иштирок этган ҳолда амалга оширилиши мумкин.

Ашёларни кўздан кечириб чиқиш ички ишлар органларининг, ҳарбий соқчилик, ҳаво транспортининг, божхона органларининг, чегара қўшинларининг, солиқ органларининг, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Солиқ, валютага оид жиноятларга ва жиноий даромадларни легаллаштиришга қарши курашиш департаменти ва унинг жойлардаги бўлинмаларининг, Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси органларининг, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида бевосита назарда тутилган ҳолларда эса, шунингдек тегишли ваколати бўлган органларнинг бошқа ваколатли шахслари томонидан амалга оширилади.

Ашёларни, ов қилиш ва балиқ тутиш қуролларини, қўлга киритилган маҳсулотлар ва бошқа буюмларни кўздан кечириш, одатда, шу ашё ва буюмлар кимнинг мулки ёки эгалигида бўлса, ўша шахс иштирокида амалга оширилади. Кечиктириб бўлмайдиган ҳолларда, мазкур ашёлар, буюмларни мулкдорсиз (эгасисиз) иккита ҳолис гувоҳ иштирокида ҳам кўздан кечириб чиқилиши мумкин.

Шахсий кўриқдан ўтказиш ва ашёларни кўздан кечириш тўғрисида баённома тузилади ёки маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги баённомага ёхуд маъмурий йўл билан ушлаб туриш тўғрисидаги баённомага тегишинча ёзиб қўйилади.

Божхона муассасаларида шахсий кўриқдан ўтказиш ва ашёларни кўздан кечириш божхонага доир қонун ҳужжатлари билан белгиланган тартибда амалга оширилади.

290-модда. Ашёлар ва ҳужжатларни олиб қўйиш

Ҳуқуқбузарларни ушлаш, шахсий кўриқдан ўтказиш ёки ашёларини кўздан кечириш вақтида аниқланган ҳуқуқбузарлик содир этиш қуроли ёки бевосита шундай ашёлар бўлмиш ашё ва ҳужжатлар ушбу Кодекснинг 287 ва 289-моддаларида назарда тутилган органларнинг мансабдор шахслари томонидан олиб қўйилади. Олиб қўйилган ашё ва ҳужжатлар маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишлар кўриб чиқилгунга қадар шундай ашё ва ҳужжатларни олиб қўйиш ҳуқуқи берилган органлар (мансабдор шахслар) томонидан белгилаб бериладиган жойларда сақланади, иш кўриб бўлинганидан кейин эса, уни кўриб чиқиш натижаларига қараб, бу ашё ва ҳужжатлар белгиланган тартибда мусодара қилинади ёки эгасига қайтариб берилади ёхуд йўқ қилиб юборилади, ашёлар ҳақ тўлаб олиб қўйилган тақдирда эса – сотиб юборилади.

Олиб қўйилган ордон, медаль, фахрий унвоннинг кўкракка тақиладиган нишони қонуний эгасига қайтариб берилади, башарти, эгаси номаълум бўлса, унда тегишли органга жўнатилади.

Божхона қоидалари ёки солиқ ва валюта тўғрисидаги қонун ҳужжатлари бузилган тақдирда, башарти ҳуқуқбузар Ўзбекистон Республикасида доимий истиқомат жойига эга бўлмаса, жарима ундирилишини таъминлаш мақсадида унинг ашёлари (қимматли буюмлари) олиб қўйилиши мумкин.

Ашё ва ҳужжатлар олиб қўйилган тақдирда бу хусусда баённома тузилади ёки маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги баённомага ёхуд буюмларни кўздан кечириб чиқиш ёки маъмурий йўл билан ушлаб туриш ҳақидаги баённомаларга тегишли ёзув ёзиб қўйилади.

Содир этилган ҳуқуқбузарлик учун ушбу Кодексга мувофиқ транспорт воситасини, кичик ҳажмли кемани бошқариш ҳуқуқидан, ов қилиш ҳуқуқидан маҳрум этиш тарзида маъмурий жазо қўлланилиши мумкин бўлса, ҳуқуқбузардан унинг иши юзасидан қарор чиқарилгунга қадар транспорт воситаси, кичик ҳажмли кемани

бошқариш ҳуқуқини берувчи гувоҳнома, овчилик билети олиб қўйилади ва бу ҳақда маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги баённомага, шунингдек ҳайдовчилик гувоҳномасининг талонига, кема бошқарувчиси гувоҳномасининг талонига тегишлича ёзиб қўйилиб, талонлар транспорт воситаси ҳайдовчисига, кема бошқарувчисига қайтариб берилади.

Транспорт воситаларини бошқариш ҳуқуқини берувчи гувоҳномани олиб қўйиш Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, кичик ҳажмли кемаларни бошқариш ҳуқуқини берувчи гувоҳномани ва ов қилиш ҳуқуқини берувчи гувоҳномани олиб қўйиш эса – Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси белгилаган тартибда амалга оширилади.

Ушбу Кодекснинг 185-моддасида, 220-моддасининг биринчи ва иккинчи қисмларида, 221 ва 222-моддаларида назарда тутилган ҳуқуқбузарлик содир этилган тақдирда, милиция ходимлари иш кўриб чиқилгунга қадар ўқотар қуролни, шунингдек ўқ-дориларни олиб қўйишга ҳақлидирлар, бу хусусда мазкур қуролнинг марка ёки модели, калибри, туркуми ва тартиб рақами, ўқ-дориларнинг микдори ва тури кўрсатилган ҳолда баённомага тегишли ёзув ёзиб қўйилади.

Ўз хизмат бурчини бажариш вақтида ҳуқуқбузарлик содир этган шахсга нисбатан унинг ашёларини олиб қўйиш, шахсий кўриқдан ўтказиш ва ашёларни кўздан кечириб чиқиш жуда зарур бўлган ҳоллардагина қўлланилади.

291-модда. Транспорт воситаларини ушлаб туриш ва кўриқдан ўтказиш асослари ва тартиби

Транспорт воситаларини ушлаб туриш ва кўриқдан ўтказиш қонун ҳужжатлари билан ваколат берилган органлар (мансабдор шахслар) томонидан ушлаб туриш сабаби бартараф этилгунга ва маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги иш кўрилгунга қадар амалга оширилиши мумкин, чунончи:

а) транспорт воситаларининг ҳайдовчилари ушбу Кодекс 125-моддасининг учинчи, бешинчи ва олтинчи қисмларида, 125¹-моддасининг иккинчи қисмида, 126-моддасида, 128⁶-моддасида (агар транспорт воситасининг ҳайдовчиси бўлмаса ва тўхташ ёки тўхтаб туриш қоидаларининг бузилиши йўл ҳаракати иштирокчиларининг ҳаракатланишига халақит берса), 131, 135, 135¹-моддаларида, 136-моддасининг биринчи ва иккинчи қисмларида, 137, 176³-моддаларида, 194-моддасида (милиция ходимининг транспорт воситасини

тўхтатиш тўғрисидаги қонуний талабини бажармаслик қисмида) назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларни содир этганда, шунингдек қонун ҳужжатларида тўғридан-тўғри назарда тутилган бошқа ҳолларда – ички ишлар органлари томонидан;

б) Қуролли Кучларнинг ва чегара қўшинларининг транспорт воситаларини бошқараётган ҳайдовчилари ва бошқа шахслари йўл ҳаракати қоидаларини бузганда – ҳарбий автомобиль инспекциясининг мансабдор шахслари томонидан;

в) ушбу Кодекснинг 60, 78, 79, 81, 82, 84, 90, 92, 94-моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар содир этилганда — Ўзбекистон Республикаси Табиатни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси органларининг мансабдор шахслари томонидан;

г) ушбу Кодекснинг 198, 227-моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар содир этилганда — Ўзбекистон Республикаси божхона органларининг мансабдор шахслари томонидан.

д) ушбу Кодекснинг 164, 166, 167, 168, 172, 173, 176, 176³, 186¹-моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар содир этилганда – Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Солиқ, валютага оид жинойтларга ва жиноий даромадларни легаллаштиришга қарши курашиш департаменти ва унинг жойлардаги бўлинмаларининг мансабдор шахслари томонидан.

е) ушбу Кодекснинг 196¹, 224, 224¹, 224²-моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар содир этилганда — чегара қўшинларининг мансабдор шахслари томонидан.

Қонун ҳужжатлари бузилганлиги учун ушланган транспорт воситаларини (Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларининг ва чегара қўшинларининг транспорт воситаларидан ташқари) сақлаб туриш жойларига олиб бориш, жойлаштириш ва сақлаш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

292-модда. Транспорт воситасини бошқаришдан четлатиш, мастлик ҳолатини аниқлаш учун текширувдан ўтказиш

Транспорт воситаларини бошқараётган мастлик ҳолатида деб ҳисоблашга етарли асослар бўлган шахс транспорт воситасини бошқаришдан четлаштирилиши ва мастлик ҳолатини аниқлаш учун белгиланган тартибда текширувдан ўтказилиши керак.

Мазкур шахсни текширишга юбориш ва бу текширувни ўтказиш Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва Адлия вазирлиги томонидан белгиланган тартибда амалга оширилади.

293-модда. Маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни юретишни таъминлаш чоралари устидан шикоят бериш

Маъмурий йўл билан ушлаб туриш, шахсни кўриқдан ўтказиш, ашёларни кўздан кечириш, транспорт воситаларини ушлаб туриш ва кўздан кечириш, ашё ва ҳужжатларни олиб кўйиш, транспорт воситасини бошқаришдан четлаштириш устидан манфаатдор шахс юқори органга (мансабдор шахсга), прокурорга ёки судга шикоят бериши мумкин.

294-модда. Маъмурий жавобгарликка тортилаётган шахснинг ҳуқуқ ва бурчлари

Маъмурий жавобгарликка тортилаётган шахс иш материаллари билан танишиб чиқишга, изоҳлар беришга, далиллар келтиришга, ўз илтимосини баён этишга, ишни кўриб чиқиш вақтида адвокатнинг юридик ёрдамидан фойдаланишга, ўз она тилида сўзлашга ва таржимоннинг хизматларидан фойдаланишга, иш юзасидан чиқарилган қарор устидан шикоят беришга ҳақлидир.

Маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги иш маъмурий жавобгарликка тортилаётган шахс иштирокида кўриб чиқилади. Мазкур шахсга ишни кўриб чиқиш жойи ва вақти ҳақида хабар қилинганлиги тўғрисида маълумотлар бўлган ва ундан ишни кўриб чиқишни кечиктириш хусусида ҳеч қандай илтимос тушмаган ҳоллардагина иш унинг иштирокисиз кўриб чиқилиши мумкин.

Башарти содир этган ҳуқуқбузарлиги учун ушбу Кодексда маъмурий қамоққа олиш, ашёларини мусодара қилиш ёки ҳақини тўлаш шarti билан олиб кўйиш чораларини қўлланиш назарда тутилган бўлса, маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни кўриб чиқиш вақтида маъмурий жавобгарликка тортилаётган шахснинг қатнашиши шарт. Мазкур шахс бундай маъмурий ҳуқуқбузарлик тўғрисидаги ишни кўриб чиқишда қатнашишдан бўйин товлагани тақдирда у маъмурий ишлар бўйича судьянинг ажримига биноан ички ишлар (милиция) органи томонидан мажбуран олиб келиниши мумкин. Экспорт қилиниши ман этилган буюмлар ва маҳсулот Ўзбекистон Республикасидан ташқарига олиб чиқиб кетилиши билан

боғлиқ бўлиб, мусодара чораси қўлланилиши мумкин бўлган маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги иш божхона органи томонидан алоҳида ҳолларда, агар маъмурий жавобгарликка тортилаётган шахс Ўзбекистон Республикаси ҳудудидан ташқарида бўлса ёки унинг қаердалигини аниқлашнинг иложи бўлмаса, маъмурий жавобгарликка тортилаётган шахснинг иштирокисиз кўриб чиқилади.

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	3
I bob. MA‘MURIY MAJBURLASH MA‘MURIY HUQUQ INSTITUTI SIFATIDA. MA‘MURIY MAJBURLASH TUSHUNCHASI VA TURLARI	7
II bob. ICHKI ISHLAR IDORALARI TOMONIDAN MA‘MURIY MAJBURLASH CHORALARINI QO‘LLASHNI TARTIBGA SOLUVCHI HUQUQIY ASOSLAR VA ULARNING TAHLILI.....	18
III bob. ICHKI ISHLAR IDORALARI TOMONIDAN MA‘MURIY MAJBURLASH CHORALARINI QO‘LLASH TARTIBI VA PROTSESSUAL TALABLAR.	29
XULOSA.....	42
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	43
ILOVA.....	45

BAXRAMOV Xojiakbar Xusanovich

ICHKI ISHLAR IDORALARI TOMONIDAN MA‘MURIY MAJBURLASH CHORALARINI QO‘LLASH ASOSLARI VA TARTIBI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir **I. I. Huvaytov**
Texnik muharrir **M. R. Isametova**

Bosishga ruxsat etildi 02.05.2014. Nashriyot-hisob tabag‘i 3,0.
Adadi 30. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.